F.D.Shermanova

MEDIA TA'LIM VA RAQAMLI SAVODXONLIKNING NAZARIY HAMDA AMALIY ASOSLARI

MONOGRAFIYA

TOSHKENT 2024

Toshkent amaliy fanlar universiteti 24.09.24y. №2 - sonli ilmiy Kengash qaroriga asosan chop etishga ruxsat etilgan.

Muallif: F.D.Shermanova

Taqrizchilar: M.Mamarajabov

A. Ibraymov

Annotatsiya

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash sifati eng muhim va dolzarb masalalardan biridir. Mazkur muammo mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Dunyo miqyosida maktabgacha ta’lim va tarbiyaning innovatsion modellarini ishlab chiqish, bolaga ta’lim beruvchi tarbiyachilarning innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, pedagogik texnologiyalar va ta’lim strategiyalarining o‘zaro uyg‘unlikda rivojlanishini ta’minlashning ilmiy-metodik ta’minotini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ushbu monografiyada mediata'limning bugungi jamiyatda tutgan o`rni, uning shakllanishi va iste`molchisi sifatida maktabgacha ta’lim tizimida axborot ko`nikmalari, axborot olishdagi muammolari va ularni bartaraf etishda talab etiladigan ko`nikmalar sohaga oid horjıy va respublikamiz olımlari ilmiy asoslangan ma`lumotlari asosida tahlil qilinib nazariy va amaliy ma`lumotlar ilmiy tadqiq qilindi.

F.D.Shermanova/ MEDIATA’LIM VA RAQAMLI SAVODXONLIKNING NAZARIY HAMDA AMALIY ASOSLARI / Monografiya. T., TAFU, 2024. 122- bet.

KIRISH

Jahonda bugungi kunda ijtimoiy ta’sirlarning jadal ravishda rivojlanishi, fan va texnologiyalar taraqqiyoti, axborotlar oqimining ortib borishi, shaxsning ijodiy resurslari va potensiali bilan bog‘liq yangi vazifalar qo‘yilmoqda. Ayniqsa, jadal sur’atlar bilan rivojlangan davlatlarda yuzaga kelayotgan ijtimoiy-pedagogik tanglik holatlari rivojlanayotgan mamlakatlarning ijtimoiy hayotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Shu bois hozirgi kunda barcha mamlakatlar ta’lim tizimida bolalar, o‘quvchilar, talabalarning ijodiy kreativ fikrlashi, o‘zining intellektual salohiyatini o‘quv va kasbiy faoliyatiga safarbar qilish kompetentligini oshirish, bolalalarni intellektual va ijodiy qobiliyatlarini mediata’lim texnologiyalar asosida rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlarga ehtiyoj ortib bormoqda. YUNESKO (1982) shafeligida o‘quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan ommaviy mediata’lim dasturi – “General Curricular Model for Mass Media Education” ishlab chiqildi.[156] Hozirgi kungacha mazkur dastur doirasida YUNESKO tomonidan Gryunvald (1982), Tuluza (1990), Parij (1997), Vena (1999), Sevilye (2002) va boshqa shaharlarda yirik xalqaro anjumanlar o‘tkazildi. Biroq maktabgacha yoshdagi bolalalarni intellektual va ijodiy qobiliyatlarini mediata’lim texnologiyalar asosida rivojlantirish kabi zamonaviy innovatsion omillar masalasi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Axborot asrida, ijodiy ongni shakllanishining pedagogik xususiyatlari, shakllari, ijodiy muhitda shaxsning ijtimoiylashuvi, shaxsning layoqati, imkoniyati, iqtidori, iste’dodi, kreativ tafakkuri bilan intellektual va ijodiy qobiliyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik muammolari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo maktabgacha yoshdagi bolalalarni mediata’lim texnologiyalar asosida aqliy va ijodiy rivojlantirish kabi pedagogik muammo dolzarb sanaladi.

Barchamizga ma’lumki, mediamahsulotlarning shaxs ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga ta’siri, bolalar axborot xavfsizligini ta’minlash, mediata’limni ijtimoiy, pedagogik va psixologik nuqtai nazardan tadqiq etish, mediafaoliyatning ilmiy-metodologik asoslarini ishlab chiqishga doir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarga “Bolalar va ekrandagi zo‘ravonlik” Xalqaro

palatasi, “Bolalar global mediasi” Sammiti, “Axborot – barcha uchun!” YuNESKO konferensiyalarida [131] e’tibor qaratilgan.

Yangi O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e’tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi, jismonan va ma’nan yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi, ularning qobiliyat va iste’dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining 2018 yil 18 iyundagi 1-mh “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” da bir qator vazifalar belgilangan bo‘lib, jumladan, “....ta’lim-tarbiya jarayoniga jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” zarurligi ta’kidlangan.

Hozirgi vaqtda dunyo psixologlari ta’kidlaganidek, “indigo” bolalar dunyoda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni kattalardanda tez sezmoqdalar. Shuning uchun bugungi kun tarbiyachilari oldida bir qator dolzarb vazifalar turibdi. Shulardan biri ta’lim jarayonida mediata’lim texnologiyalaridan foydalanishdir.

Mutaxassislar fikricha, mediata’lim o‘quvchi, bolalarni mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini yanada rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Ta’lim jarayonida mediata’lim qanchalik mukammal bo‘lsa, u yosh avlodning dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanishiga xizmat qiladi.Tarbiyachilarni mediata’lim usullardan oqilona, maqsad va sharoitga muvofiq tarzda didaktik tamoyillarga asoslangan holda foydalanishga o‘rgatish bugungi kunda zamonaviy pedagogikaning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Medianing rivojlanishi natijasida axborotlarning mazmuni, ularni ommaviy axborot vositalari orqali tarqatish usullari va yo‘llarini ham nazorat qilish amalda qiyin bo‘lib bormoqda. Axborotning bunday aralash-quralashligi ta’sirida tarbiyalanuvchilarning mustaqil ravishda tafakkur qilish muammosi yuzaga kelmoqda.

Ta’limiy faoliyat jarayonida media texnologiyalardan foydalanish o‘zining ko‘rgazmaliligi xamda yorqinligi bilan ajralib turadi. Uning foydalanuvchilari bo‘lgan kichkintoylar yakka tartibdagi va kichik guruhlardagi mashg‘ulotlar chog‘ida o‘zlarining ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish, kreativ fikrlash, nutq, mantiq, xotira va diqqatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ushbu dasturlar maktabgacha yoshdagi bolalarga erkin muhitda hissiyotlarini namoyish eta olish, fikrlarini erkin bildirish, ega bo‘lgan bilimlarini umumlashtirish, taqqoslash kabi muhim ko‘nikmalarni egallashga yordam beradi.

Shunday qilib, muammoni nazariy va amaliy o‘rganishimiz natijasida xorijiy mamlakatlarda mediata’limni o‘qitish jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha katta tajribalar to‘planganligini ko‘rsatdi. O‘zbekiston sharoitida esa garchi medianing jamiyat va shaxs hayotidagi o‘rni, ahamiyati tobora ortib borayotganligiga qaramay, mediata’limni o‘qitish jarayonida qo‘llash borasida hanuzgacha jiddiy qadam tashlanmaganligi ma’lum bo‘ldi. Mazkur fikrning isboti elektron axborot vositalari, xususan, nashr ishlari bilan tanishish chog‘ida sohaga oid ma’lumotlar deyarli uchratilmaganligi bilan izohlanadi. Mediata’limni takomillashtirib borish asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning media vositalardan foydalanish savodxonligi oshiriladi, intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga erishiladi.

I BOB. MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA MEDIATA’LIM NAZARIY- METODOLOGIK JIHATLARI

§ 1.1.Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual va ijodiy rivojlantirish nazariy asoslari hamda mediata’lim tushunchasi

Yurtimizda so‘nggi yillarda yoshlar tarbiyasi, ularning o‘sib ulg‘ayishi va har tomonlama kamol topishi uchun barcha qulay shart-sharoitlar yaratib berilgan. Birgina maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish yuzasidan so‘nggi besh yil ichida qator qaror va farmonlar imzolandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son qarori qabul qilindi. [7]. Kontsepsiyada maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko‘rib chiqish hamda maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishning zamonaviy usullarini joriy etish qayd etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi PF-60-son farmonining 1-ilova 39-maqsadida *«Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish»,* 40-maqsadida esa “**Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish”** [9] **vazifalarini amaliy tadbiq etishda** bolajonlarning intellektual rivojlantirish dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasi va ularning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim [7]. Shuningdek “Bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy

rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish” [4,39-b.] kabi muhim vazifalar belgilangan.

Bugungi kunda yosh avlodga ta’lim- tarbiya berish, farzandlarimizning barkamol, yuksak tafakkur va bilimga ega bo‘lishida ota-onalar bilan bir qatorda, maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda tarbiyachi pedagoglarning o‘rni beqiyosdir. Bolalarning maktabga tayyorgarlik jarayonida intellektual va ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish hamda rivojlantirish uchun o‘ziga xos ta’lim metodlarini ishlab chiqish, ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi [66,204-b].

Maktabgacha yoshdagi bolaning yaxlit rivojlanishi ko‘p qirrali jarayondir. Bola rivojlanishining shaxsiy, intellektual, nutqi, ijodiy, hissiy va boshqa jihatlari alohida ahamiyatga ega [62,117-b.]. Bolaning butun kelajak hayoti uning tug‘ilgandan oilada qanday tarbiya olganligiga bog‘liqligi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida o‘z isbotini topgan. Dastlab bolalarning “intellektual” va “ijodiy” qobiliyatlar mazmun-mohiyatiga to‘xtalib o‘tamiz. Odatda qobiliyat insonga shaxsning barcha individual psixologik xususiyatlari kabi tabiat tomonidan tug‘ma ravishda berilmaydi, balki xayoti davomida va faoliyat jarayonida shakllanadi. Pedagog yoki ota-ona bolalarini kuzatar ekan, bu bola ko‘proq mana bu soxaga qobiliyatli yoki u bu kasbga qobiliyati sustroq deb mulohaza qiladilar [29, 253-b.].

Maktabgacha yoshda bolalar bilimlarni jadal sur’atlar bilan o‘zlashtirib boradi. Olimlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda ikki yoshgacha bolalarda juda katta hajmdagi bilishga bo‘lgan faollik kuzatiladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning olgan bilim va ko‘nikmasi uning umri davomida shakllanadigan intellektining 80% iga tenglashtiriladi.

Pedagogika entsiklopediyasida “**Intellekt** (lot. intellectus - aql, idrok, zexn) - kishining voqea-xodisa moxiyatini to‘laligicha bilishiga asoslangan va u orqali namoyon bo‘ladigan faoliyati; kishining aqliy qobiliyati; xayotni, atrof-muhitni

ongda aynan aks ettirish va o‘zgartirish, fikrlash, o‘qish- o‘rganish, dunyoni bilish va tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni xal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-xodisalarni oldindan ko‘ra bilish layoqati”[57,102-b.] deb ta’riflanadi.

Demak Intellekt – aql keng ma’noda sezish va idrok etishdan boshlanib, tafakkur va hayotni o‘z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig‘indisidir.

Intellektual qobiliyat – aqliy faoliyatning oldindan to‘plangan barcha tajribalaridan foydalanish malakasidir. Intellektual qobiliyatning rivojlanishi aqliy tajriba boyigan sari, inson bajarishi mumkin bo‘lgan intellektual funksiyalarning soni va sifatining oshishi bilan amalga oshadi. Intellektual funksiyalar sifatining oshishi mavjud intellektual qobiliyatlarning rivojlanishini, intellektual funksiyalar sonining ortishi esa yangilarining paydo bo‘lishini ko‘rsatadi [73,123-b]. Bundan kelib chiqadiki, bolalarga ta’lim tarbiya berishdan maqsad faqat avlodlar tomonidan to‘plangan tajribani o‘tkazish emas, balki bolalarning aqliy faoliyat tajribasini shakllantirishdan iborat bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, bolalarning shaxsiy tajribasi imkon qadar boy bo‘lishi uchun harakat qilish kerak. Bolaning aqliy rivojlanishi deganda hayotiy ta’sir etish va oqibatlarning barcha miqdoriy imkoniyatlari natijasida kelib chiqadigan aql kuchi hamda fikrlashning rivojlanish jarayonini tushunish mumkin. Aqliy rivojlanish atamasi bir qatorda “aqliy kamolot” atamasi ham qo‘llaniladi. Aqliy kamolot – yoshning o‘sib, tajribaning boyib borishi munosabati bilan bolaning aqliy faoliyatida ro‘y beradigan miqdor va sifat o‘zgarishlarining majmuasidir [74, 84-b.].

Barcha olimu fozillar o‘z davrining mutafakkirlari o‘zlarining ta’lim-tarbiyaga bag‘ishlangan asarlarda jamiyat uchun xizmat qiladigan insonni voyaga yetkazishda aql, tafakkur, aqliy rivojlantirish, bilim egallash xaqida fikr mulohazalarini bayon etganlar. Jumladan Forobiyning fikricha, mavjudotning eng buyuk va eng yetuk mahsuli - bu odamdir. Inson o‘zining ongi, aqli, sezish qobiliyatiga egadir. Inson o‘z aqli yordamida o‘zini o‘rab olgan mavjudotning mohiyatini tushunadi. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarida aqliy, axloqiy,mehnat, jismoniy va nafosat tarbiyasiga doir fikrlari katta tarbiyaviy

ahamiyatga egadir. U insonni ulug‘laydi. Uning fikricha, insonning ulug‘ligi aql-idroki, so‘zlash qobiliyati, bilimi, uquvi, hunarga egaligidadir [34, 38-b.].Bolalarni yoshlikdan aqli va qobiliyatini rivojlantirish ularning kamolotga yetishishida muhim sanaladi. Chunki aql-idrok shaxs rivojlanishidagi muhim omildir.

Abu Ali ibn Sino aqlning rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqan. Mushohada bilan idrok etishning birinchi bosqichi - aqliy kategoriyalarini tushuntirishdir. Ikkinchi bosqich - ikki xil fikrni idrok etish. Uchinchi bosqich - o‘zlashtirilgan bilim, fikrlarni idrok etish bilan erishiladi. Shunda u haqiqiy aql deyiladi.Olim aqlni uch bosqichga bo‘lar ekan, birinchi bosqichda yodlay oladigan, lekin hali harflarni ham, yozishni ham bilmaydigan bolalarni nazarda tutgan. Ikkinchi bosqichda tayoqchalarni chiza boshlagan, qalamdan foydalanishni o‘rganayotgan bolalarning aqli tasavvur qilinadi. Uchinchi bosqichda inson aql shakllarini va ularga muvofiq hissiy obrazlarni egallagan bo‘ladi [52,155-b]. Darhaqiqat bolalarda intellektni rivojlanishida bilish jarayonlari ya’ni sezgi, idrok, xotira va tafakkur alohida o‘rin tutadi. Bola borliqni tasavvur qiladi va anglaydi, natijada mushohada yuritadi. Ularda ijodiy qobiliyatni rivojlanishida xayol va tasavvur muhim rol o‘ynaydi.

Ilk bolalik davridan boshlab uni o‘rab turgan predmetlarning xususiyatlarini va ular orasidagi oddiy bog‘liqlikni anglashga harakat qiladi. Bu davr aqliy rivojlanishning asosini, idrok va tafakkur harakatlaring yangi ko‘rinishlarini tashkil etadi.

Tarixda ilk bor intelektual qobiliyatlardagi individual farqlarni aniqlash uchun F.G.Galton o‘zining “aqliy testlar”ini ishlab chiqdi [103]. Shveytsariyalik olim Edvard Klapared o‘z tadqiqotlarida 3-7 yoshgacha bolalarda intellekt va tafakkur rivojlanishi hamda umumiy qiziqishlar ortib borishi, 7-12 yoshda esa individual xususiyat va qobiliyatlar paydo bo‘lishi, ularda intellektual rivojlanish maxsus qiziqishlar bilan uzviy bog‘liqligini asoslaydi [82,24-b.].

Intellekt to‘g‘risida oddiy odamlar qanday tasavvurga ega ekanliklarini tushuntirish maqsadida R. Shternberg tadqiqot o‘tkazgan va natijada insonlar umumiy intellekt tushunchasiga quyidagilarni kiritishlarini ko‘rsatib o‘tgan:

1. Amaliy masalalarni hal qilish qobiliyati. Odam mantiqiy fikr yuritadi, muammoning barcha tomonlarini ko‘ra biladi; to‘g‘ri yechimga kela oladi, zarur axborotlarning original manbalariga murojaat etadi; barcha dalillarni eshitadi.
2. Verbal qobiliyat. Aniq va ravon tilda gapiradi; o‘qiganini yaxshi tushunishi; lug‘at boyligi kuchli va yaxshi; yozma nutqida muammolarga duch kelmaydi; odamlar bilan oson va samimiy muomalaga kirishadi va xokazo.
3. Ijtimoiy kompetentlik. Boshqa odamlarni qanday bo‘lsalar, shundayligicha qabul qiladi; uchrashuvlarga kechikmaydi; to‘g‘ri xulosa va qarorlarga kela oladi; boshqalarning xohish va extiyojlarini seza biladi; qiziquvchan va hokazo.[75, 2347-b]

Ma’lumki, intellekt va sezgi o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bolalar his qilish orqali atrofdagi voqea-hodisa, narsa va buyumlar bilan tanishadi. Ularning xususiyati va vazifalariga qiziqadi. Shuning uchun ham mazkur yoshda ko‘proq ko‘rgazmali va amaliy metodlarga tayanish lozim

AQSHlik psixolog F.Frimen intellekt oltita tarkibdan iborat degan g‘oyani ilgari suradi va uning diagnostikasini quyidagi guruxlarga ajratadi:

- ✓ sonli operatsiyalarga nisbatan qobiliyatlilik;
- ✓ lug‘at boyligi ko‘lami;
- ✓ geometrik shakllar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqli tomonlarini ajratishga nisbatan uquvchanlik;
- ✓ shaxs nutqining tezligi yoki sur’ati;
- ✓ shaxsning fikrlashga, mulohaza yuritishga qobiliyatliligi;
- ✓ xotiraning mahsuldorligi yoki noyob xislatligi.[152]

М. Матюшкин “ijodiy faoliyatni bilish jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan tizim”-deya ta’kidlaydi [28,13-b.]. 5-7 yoshdagi bolalar atrof muhit bilan tanishish natijasida ijodiy tasavvur shakllanadi, bu esa, bolaning intellektual va yetuk shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi.

А.В.Анишченко ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish shartlaridan biri bu ijodiy faoliyat bo‘lib, u bolaga ijodiy jarayonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘shilish imkonini

beradi. Ijodiy faoliyatni turli mashg‘ulotlarda masalan o‘yinlarda aks ettirishi mumkin. Bunda bola o‘zini mutlaqo erkin his qiladi va o‘z fikrini, g‘oyalarini bemalol bayon eta oladi [84]. 5-7 yosh bolalar bilan didaktik o‘yinlarni tashkil etish orqali aqlni va ijodkorlikni rivojlantirishga erishiladi. Chunki, bu yoshda bolalarda o‘yin yetakchi faoliyat hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tizimida yurtimiz olimlari tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy ijodiy rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, tafakkur erkinligi, ularning yoshiga xos bo‘lgan pedagogik -psixologik xusiyatlarning nazariy metodik jihatlarini tadqiq qilish va bu borada innavatsion usullar ishlab chiqish amaliyotga joriy etishga doir ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Jumladan B.R.Qodirov, A.F.Azimovalar tomonidan o‘quvchilarning aqliy qobiliyati va iqtidorini aniqlash metodikasi ishlab chiqilgan.[50, 7-b.].

G.Djanpeisova esa, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda elementar geometrik tasavvurlarni shakllantirishning metodik asoslarini ishlab chiqqan [30, 7-b.].Bolalarda elementar matematik bilimlarni rivojlantirish orqali aqliy va ijodiy fikrlashi mustahkamlanadi. Geometrik shakllardan turli xil buyum va narsalar yasaydi, albatta bu jarayonda ham aqliy ham ijodiy faoliyat amalga oshadi.

Psixolog olim K.Qodirov bugungi kunda maktabda ta’lim olishga psixologik tayyorlik darajasining tarkibiy qismlari sifatida shaxs nuqtai nazaridan hamda aqliy va ijtimoiy jihatdan yetilganlik darajasining birligidan iboratligini ilmiy asoslab beradi. Shaxs nuqtai nazaridan yetuklik deganda, umuman olganda, bolaning yangi bir ijtimoiy bosqichga o‘tishi bilan bog‘liq ravishda maktab hayotiga, ya’ni o‘quv faoliyati, o‘qituvchi va o‘ziga bo‘lgan ichki munosabatlari tushuniladi [48,9-b.]. Olimning g‘oyalari asosida maktab ta’limining samarali amalga oshirilishi uchun bolada hissiy barqarorlik shakllangan bo‘lishi lozim degan xulosaga kelish mumkin.

Maktabgacha ta’lim tizimi bo‘yicha so‘nggi uch yilda qator tadqiqotlar olib borildi. Jumladan G.A.Berdaliyeva nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida badiiy asarlar, didaktik mashg‘ulotlar, tasviriy san’at namunalari misolida bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish metodikasi faoliyatlilik, iyerarxiklik, mantiqiylik, dinamiklik

tamoyillaridan hamda multimediyali elektron ta’lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo‘yicha izlanish olib borgan [26, 3-b.]. Bolalarni ma’lumotlarni o‘zlashtirishlarida multimedia vositalari yordamchi o‘quv vositasi sanaladi. O‘quv materiallarini ko‘rish orqali ko‘rgazmali obrazli tafakkur rivojlanadi. Tafakkur esa bilishning eng oliy bosqichidir.

I.I.To‘ychiyeva fikricha “maktabga tayyorlov guruh bolalari fikrlash faolligini oshirishda milliy pedagogika elementlari ertak terapiya, tez aytishlar, maqollar o‘yinlarni qo‘llash orqali mantiqiy va ijodiy fikrlashni faollashtirishga erishiladi [78,7-b.]. Bolalarni intellektual-ijodiy qobiliyatini rivojlanishtirishning muhim shartlaridan biri mantiqiy va kreativ fikrlashga o‘rgatishdir. Natijada bolalar mustaqil va erkin so‘zlash ko‘nikmalarini egallaydi.

M.M.Berdiyeva maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini pedagogik qo‘llab-quvvatlash asosida intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish hamda ijtimoiy-pedagogik zaruriyat ekanligini ilmiy jihatdan asoslagan va metodik tavsiyalar ishlab chiqqan [17,9-b.]. Shuningdek bolalarni har tomonlama rivojlantirishga doir M.N.A’zamova [15], N.Sh.Abdullayeva [16], T.L.Xurvaliyeva [82] kabi tadqiqotchilarning ishlarida xam ko‘rishimiz mumkin.

Nazariy tahlil natijalariga ko‘ra aytishimiz mumkinki, bolaning intellektual rivojlanishi uchun qulay davr bu maktabgacha bolalik davridan boshlanadi. Bolaning biror bir voqeani mustaqil ravishda tahlil qilishi va uning sabab-oqibatlarini bilishi uning aqliy rivojlanishining bir qismi hisoblanadi. Shu sababli, bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi o‘quv jarayonining eng muhim bosqichlaridan biridir.

M.A. Norbosheva quyidagi ilmiy g‘oyalarni ilgari suradi, “maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarning intellektual salohiyatining rivojlanishida ulardagi tug‘ma qobiliyat va iste’dod muhim ahamiyatga ega. Tug‘ma qobiliyatga ega bo‘lgan bolalarimiz kattalarning har bir ta’limiy, tarbiyaviy va kasbiy ta’limotlarini tez ilg‘ab oladilar va tez o‘zlashtirib, hayotga tatbiq etadilar. Ammo, barcha yoshlarimizga ham birdek tug‘ma talant, qobiliyat va iste’dod nasib etavermaydi. Shunday ekan, qobiliyatni shakllantirib borish, yoshlarning iste’dodini oshirib

borishdek muhim vazifa birinchi navbatda pedagoglarimiz va keng jamoatchilik zimmasiga ya’ni oila, o‘quv muassasalari, korxona, tashkilot, ustaxona boshqaruvchilari zimmasiga tushadi” [44].

Keyingi yillarda olib borilgan pedagogik-psixologik tadqiqotlarning natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatadi. Bularning barchasi bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko‘nikmalarni yanada chuqurlashtirish, hajmini kengaytirishga bog‘liq [46,50-b].

Sabirova D.Tning fikriga ko‘ra, “maktabga tayyorgarlik” tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning jismoniy, shaxsiy (ruhiy), aqliy va maxsus tayyorgarlik yo‘nalishlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Ya’ni ular jismoniy tayyorgarlik-bolaning sog‘lomligi, harakat ko‘nikmalari, ko‘rish va qo‘l mushaklarining o‘zaro muvofiq tarzda rivojlanishi bilan izohlanadi; shaxsiy tayyorgarlik-bolaning oilada yoki biror bir ta’lim-tarbiya maskanida tarbiyalanganligiga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkinligi nazarda tutiladi; maxsus tayyorgarlikning asosiy ko‘rsatkichlari bu faoliyatning tushunib yetilishi va erkinligi, ijodiy tasavvurlarning rivojlanganligi hisoblanadi; aqliy tayyorgarlikda maktabgacha yoshning ilk davridan boshlab bolalarda sensor, mantiqiy tasavvurlarni rivojlantirish, qurish-yasash, rasm chizish, loydan narsalar yasash orqali ko‘nikma va malakalar shakllantirib boriladi” [56,3-b.].

Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, 5-6 yosh bolaning maktabga tayyorgarlik ko‘nikmalari asta-sekin takomillashib borgandan so‘ng ularda “ijodiy rivojlanish” davri boshlanadi atrof olamga qiziqishni namoyon qiladi. O‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o‘z ijodiy rejalarini tuzish, tatbiq qilishda foydalanadi.

Ijodiy qobiliyatlar yangilik yaratish zarurligi va mumkinligini tushunish, muammoni ifodalay olish, g‘oya farazini ilgari surish uchun kerak bo‘ladigan bilimlarni ishga sola bilish, farazni nazariy va amaliy jihatdan tasdiqlash, muammoni xal qilish yo‘llarini izlash hamda topish, natijada yangi original mahsulotlar yaratish (ilmiy kashfiyot, ixtiro, san’at asari, tavsifnoma va x.zo.) [56,54-b.]. Rivojlanish markazlaridagi faoliyatda bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi. Bolalar o‘quv-tarbiyaviy faoliyat davomida

predmetlarni turlariga ko‘ra guruhlaydilar, tabiat va insonlar o‘rtasidagi munosabat borasidagi bilimlarni tizimlashtiradi, atrofdagi predmetlarning belgilari kattalik, rangi, hayotiy faoliyatda foydalanishni o‘rganadi.

Tadqiqotchi D.T.Sobirova “ijodiy qobiliyat” insonni hayvondan farqlab turadigan xususiyatlardan biridir. Bu qobiliyat insonni nafaqat hayoti davomida qo‘l kelishi va undan foydalanishi ham mumkin. Bolalar atrof-olam bilan tanisha borish jarayonida ularni o‘z faoliyatlarida ya’ni o‘yinlarida, chizgan rasmlarida, loy ishlarida, hikoyalarda va hokazolarda aks ettiradi”-deb ta’kidlaydi [56,19-b.]. Maktabgacha ta’lim jarayonida “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida bolalarga ta’lim berishda “bilish kompetensiyasi orqali bilim olish, o‘qish va o‘rganish; mustaqil ravishda izlanish, tahlil qilish va atrof-olamni tushunish uchun kerakli ma’lumotlarni tanlash qobiliyati rivojlanadi. Harakat va o‘zaro munosabatlar orqali bolalar bilim olish va o‘rganish strategiyalarini ishlab chiqadilar. Ular atrof-olamdagi yangi obyektlarni o‘rganadilar va kashf etadilar. Boshqalar bilan o‘yin va o‘zaro muloqot jarayonida ular kuzatadilar va tajriba o‘tkazadilar. Ular muammolarni tushunish va hal qilish uchun yangi imkoniyatlar topadilar. Ular o‘zlarining kashfiyotlari bilan o‘rtoqlashadilar va asta-sekin mustaqil, o‘z-o‘zini boshqaradigan, tahlil qila oladigan va ijodkor shaxsga aylanadilar” [13].

N.I.Rejametova “O‘zbek cholg‘ulari vositasida bolalar ijodkorligini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish” nomli tadqiqot ishida “ijodkorlik bolaga musiqiy qobiliyatini yuzaga chiqarishga yordam beradi” deb ta’kidlaydi [54] Hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini namoyon bo‘lishida ularning “aqliy fikrlashi”, “hissiy fikrlashi”, “kreativ fikrlashi”, “ijodiy fikrlashi”, “mazmundor fikrlashi”, “mantiqiy fikrlashi” kabi jihatdalarda ko‘rinadi va aynan maktabgacha katta yoshdagi bolalarda fikrlashning “mantiqiy fikrlash” turi nisbatan sust va og‘ir shakllanadi. Mazkur holat uchun mediata’lim texnologiyalari asosida mantiqiy fikrlashning atributlarini (ko‘rinishi, belgisi, obrazi) bolalarga ko‘rsatib o‘rgatish muhim hisoblanadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini namoyon bo‘lishining yana bir o‘ziga xos psixologik atributi (belgi) bu bollarning

fikrlashidagi kreativligidir. Bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushuniladi. Kreativlik so‘zi (inglizcha «create» – yaratuvchanlik, ijodkorlik) so‘zidan olingan bo‘lib, inson shaxsining ijodkorlikka bo‘lgan qobiliyati, ijodkorlik iste’dod darajasi, individning an’anaviylik yoki odat tusiga kirgan fikrlash sxemasidan uzoq bo‘lgan, prinsipial yangi g‘oyalarni yaratishga tayyorlikni xarakterlovchi, shuningdek, muammolarni o‘zgacha tarzda bartaraf etish, iqtidorning mustaqil omili sifatida qabul qilingan ijodiy qobiliyatlaridir[20, 65b.].Maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlashlaridagi kreativlik qobiliyatiga kelsak, ba’zi bolalar moslashishdan ko‘ra yangilikka katta ahamiyat berishadi, boshqalari esa ikkala xususiyatga ham bir xil ahamiyat berishadi. Yangilik va moslashuvning nisbiy ahamiyati, shuningdek, mavzu hal qilinadigan muammoning tabiatiga bog‘liq.

Kreativlik - bu yangi bo‘lgan va u joylashgan kontekstga mos keladigan mahsulotni yaratish qobiliyati. Bunday mahsulot, masalan, g‘oya, musiqa parchasi, hikoya yoki reklama bo‘lishi mumkin. Ta’rif bo‘yicha yangi fikr, g‘oya original va kutilmagan hisoblanadi, bu yondashuv yoki fikr o‘zi yoki boshqa odamlar ilgari yaratgan nazariya yoki fikrdan farq qiladi. Bundan tashqari, uning yangiligi darajasi avval yaratilganidan muhim yangilikgacha minimal farq qilishi mumkin [114]. Ijodiy mahsulot shunchaki yangi bo‘lishi mumkin emas. Bundan tashqari, u moslashuvchan bo‘lishi, ya’ni odamning vaziyatiga qarab turli xil cheklovlarga mos kelishi kerak.

Odamlar yangilik va moslashish haqida boshqacha tushunchaga ega bo‘lishlari mumkin. Ba’zi odamlar uchun yangilik - bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri va hissiy reaksiyani qo‘zg‘atish uchun original yechimning qobiliyati, boshqalari esa ushbu yechimni ilgari taklif qilinganlar bilan taqqoslash orqali yangilik topadilar. Va nihoyat, shaxsiy tajribaga qarab, g‘oya bir odam uchun yangi bo‘lib ko‘rinishi mumkin, ammo boshqasiga emas.

Quyida tavsiflangan tadqiqotlar g‘arbning kreativlik to‘g‘risidagi g‘oyalariga asoslangan bo‘lsa ham, ushbu nuqtai nazarning cheklanishlariga e’tibor qaratish lozim. Kreativlik bilan bog‘liq psixologik va pedagogik hodisalarni chuqurroq

tushunish ham shaxsni, ham jamiyatni qiziqtiradi. Kreativlik har bir insonning kundalik hayotida ijobiy rol o‘ynashi mumkin, masalan, hissiy va professional hayotda yuzaga keladigan boshqa odamlar bilan munosabatlardagi muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Bugungi kungacha mantiqiy fikrlash tushunchasi yuzasidan ko‘plab ta’riflarning mavjudligi, haligacha aniq bir to‘xtamdagi ta’rifining ishlab chiqilmaganligi muammoga dialektik nuqtai nazardan yondashuvni talab qiladi. Fikrlash – muayyan voqea-xodisa xaqida ma’lum bir xulosaga kelish uchun mulohaza yuritish,o‘ylashni ifodalovchi tushuncha.[58, 274-b]

Mantiqiy fikrlash – fikrlashning oliy pog‘onalaridan biri bo‘lib, izchillik, ketma-ketlik asosida fikrlarning bog‘lanishini bildiradi va shaxs ijodiy faolligining muhim qirrasini o‘zida aks ettiradi. O‘z navbatida shaxsda mazkur sifatlarni tarkib toptirish demokratik va insonparvar jamiyatning faol a’zosini shakllantirishga imkon beradi.

Maktabgacha katta yoshdagi bollarning mantiqiy fikrlashini shakllantirish – yaxlit tizim sifatida o‘quv mashg‘ulotlarini maqsadi, tarbiyachi faoliyati, tarbiyalanuvchi faoliyati, o‘quv mashg‘uloti natijasi, ta’lim-tarbiyaning pedagogik xususiyatlari ya’ni uning mazmuni, shakl, metod va vositalarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ular bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarda mediata’lim texnologiyalari asosida ularda “aqliy”, “hissiy”, “kreativ”, “ijodiy”, “mazmundor” va “mantiqiy” fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatining natijasi didaktik jarayonning maqsadi, o‘quv mashg‘uloti materialining mazmuni, o‘qitish, o‘rgatish shakl, metod va vositalarining to‘g‘ri va oqilona belgilanganligi hamda tanlanganligiga bog‘liq bo‘lib, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muvafaqqiyatli amalga oshishi uchun faol ta’sir etuvchi omillarning mavjud bo‘lishi talab etiladi.[70, 84-b]

5-6 yoshdagi bolalarda intellektual va ijodiy rivojlanishida zamonaviy texnologiyalarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining o‘quv jarayonida “media”- ya’ni, internet, televideniye, radio, kino, video, telefon va boshqa aloqa vositalari o‘z samarasini ko‘rsatmoqda.

Hozirgi vaqtda dunyo psixologlari ta’kidlaganidek, “indigo” bolalar dunyoda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni kattalardanda tez sezmoqdalar. Shuning uchun bugungi kun tarbiyachilari oldida bir qator dolzarb vazifalar turibdi. Shulardan biri ta’lim jarayonida mediata’lim texnologiyalaridan foydalanishdir.

Mutaxassislar fikricha, mediata’lim o‘quvchi, bolalarni mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini yanada rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Ta’lim jarayonida mediata’lim qanchalik mukammal bo‘lsa, u yosh avlodning dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanishiga xizmat qiladi.Tarbiyachilarni mediata’lim usullardan oqilona, maqsad va sharoitga muvofiq tarzda didaktik tamoyillarga asoslangan holda foydalanishga o‘rgatish bugungi kunda zamonaviy pedagogikaning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Medianing rivojlanishi natijasida axborotlarning mazmuni, ularni ommaviy axborot vositalari orqali tarqatish usullari va yo‘llarini ham nazorat qilish amalda qiyin bo‘lib bormoqda. Axborotning bunday aralash-quralashligi ta’sirida tarbiyalanuvchilarning mustaqil ravishda tafakkur qilish muammosi yuzaga kelmoqda.

Tarbiyalanuvchilar ongida axborot olamini tartibga solish yo‘llarini izlash, intellektual va ijodiy fikrlash bilan birgalikda tanqidiy fikrlash, axborot bilan muomala qilishning yangi usul va ko‘nikmalar tizimini ishlab chiqish hamda shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu esa, mediata’lim, mediasavodxonlik, mediabilimdonlik, mediakompetensiya hamda mediamadaniyatni rivojlantirish zaruriyatini vujudga keltirdi.[64,26-b.].

Ta’limiy faoliyat jarayonida media texnologiyalardan foydalanish o‘zining ko‘rgazmaliligi xamda yorqinligi bilan ajralib turadi. Uning foydalanuvchilari bo‘lgan kichkintoylar yakka tartibdagi va kichik guruhlardagi mashg‘ulotlar chog‘ida o‘zlarining ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish, kreativ fikrlash, nutq, mantiq, xotira va diqqatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ushbu dasturlar maktabgacha yoshdagi bolalarga erkin muhitda hissiyotlarini namoyish eta olish, fikrlarini erkin bildirish, ega bo‘lgan bilimlarini umumlashtirish, taqqoslash kabi muhim ko‘nikmalarni egallashga yordam beradi.[71,39-b]

§ 1.2. Mediata’lim nazariyasi va uni rivojlantirishga oid xorijiy tajribalar

XX asrning 60-yillaridan boshlab Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta’lim, ilm-fan va madaniyat sohasidagi tashkiloti (United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, YUNESKO) butun dunyoda “mediata’lim” (media education) konsepsiyasni qo‘llab-quvvatlamoqda va ilgari surmoqda. Dunyoda mediata’lim deganda shaxsning media vositalari materiallari yoki ularning yordamida rivojlanishi tushunililib, bundan maqsad shaxsda media bilan muloqot madaniyatini shakllantirish, unda ijodiy, kommunikativ qobiliyatlarini tanqidiy fikrlash, mediamatnlarni to‘laqonli tarzda qabul qilish, talqin va tahlil qilish, baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘z salohiyatini mediatexnika orqali yuzaga chiqarishning turli shakllarini joriy qilishdan iboratdir.

Bugungi kunda bolalar erta yoshdanoq mediamakon bilan tanisha boshlaydilar. Olimlar J.Marsh, P.Xennon, L.Lyuis, L.Richilar olib borgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, bolalar 2-4 yoshdanoq raqamli texnologiyalar va mediamakon bilan faol ishlay boshlaydilar[146, 47-b.].

Mazkur omillardan kelib chiqqan holda, bolalarda media sohasidagi ta’lim imkon qadar erta yoshdan boshlanishi zarur. Raqamli texnologiyalarning tezkor rivojlanishi, mediatexnologiyalarning hayotimizning barcha sohalariga kirib kelishi, bolalarga xos bo‘lgan qiziquvchanlik va tez eslab qolish maktabgacha yoshdagi avlodning mediata’limini amalga oshirish uchun ko‘plab imkoniyatlar taqdim etadi.[69,125-b]

S.Nelissyen va J.Van Dyen Balklarning qayd etishicha, bugun bolalar ota-onalarini mediatexnologiyalardan foydalanishga o‘rgatadigan davr kirib keldi [149,375-b.]. Mazkur mavzuni o‘rganishdan oldin mediata’limning tarixi, nazariyasi va unga nisbatan xalqaro yondoshuvlarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

“Media” atamasi (lotincha – medium, ya’ni vosita, vositachi, usul) turli ko‘rinishdagi kommunikasiya va axborot vositasini anglatadi.

Jamiyatning har bir turi ma’lum bir «media» to‘plamiga mos keladi – ular shartli ravishda besh turga bo‘linadi: erta (yozuv), bosma (bosma, litografiya, fotosurat), elektrik (telegraf, telefon, ovoz yozish), ommaviy media (kinematograf,

televideniye), raqamli (kompyuter, internet) [96, 78-b.]. Medialarni elektron bo‘lmagan bosma medialar va elektron medialarga ajratish mumkin.

Elektron bo‘lmagan bosma medialar-davriy nashrlar, gazeta jurnal, kitoblar va komikslardan iboratdir. [42,17-b]

Elektron medialarga – radio, kino, televideniya, kompyuter (CD-ROM/USB), video o‘yinlar, internet, yozib olingan musiqa, mobil telefon va elektron kitoblar kiradi [42,17-b.].


Rossiya pedagogika ensiklopediyada keltirilishicha «media» atamasi yangiliklar va ma’lumotlarning uzatilishi, shuningdek, reklama tarqatilishini o‘z ichiga olgan bir nechta funksiyalarni bajaradigan aloqa kanallarini anglatadi. «Media» tarkibiga bosma nashrlar, elektron ommaviy axborot vositasi, Internet, pochta tarqatmalari ham kiradi [110, 138-b.].

“Media” tushunchasi hamda uning jamiyatga ta’siri mavzusi 1950-1960 yillardan boshlab tadqiqotchilarni qiziqtira boshladi. XX asr o‘rtalaridan boshlab texnologiya omillarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda hal qiluvchi o‘rin tutib borishi media muammosining tadqiqotchilar, ayniqsa, G‘arb olimlari tomonidan faol o‘rganilishiga xizmat qildi. Medianing individ va jamiyatga ta’siri, shaxsning kommunikasiya jarayonlaridagi o‘rni bilan bog‘liq masalalar G.Lassuel, U.Shramm, G.Gerbner, G. Innis, M.Maklyuen singari anglo-sakson dunyosi olimlarining asarlarida keng yoritildi. Aynan anglo-sakson maktabida “media” fenomeni bo‘yicha keng, har tomonlama tadqiqotlar olib borildi. XX asrning 60-yillarida Toronto universiteti negizida yangi ilmiy yo‘nalish ochilib, u yangi texnologiyalarning inson ongi va faoliyati ta’siriga bag‘ishlandi. Professor G.Innis rahbarligidagi birinchi guruh kommunikasiya texnologiyalarini o‘rgangan bo‘lsa, professor M.Maklyuen ommaviy kommunikasiyalar, mediata’lim fenomenlarini tadqiq qildi. Keyinchalik ushbu ilmiy yo‘nalish “Toronto kommunikasiyalar nazariyasi maktabi” nomini oldi.[63,115-b.].

Aynan professsor M.Maklyuen ilm olamiga “media” tushunchasini kiritgan olim hisoblanadi. Asli lotin tilida “medium” so‘zining ko‘plik shakli bo‘lgan “media” so‘zi “o‘rtadagi”, “vositachi” ma’nosini bildirgan holda, ilmiy iste’molda

kommunikatsiya (aloqa) vositasi, axborot uzatish qabul qilish usuli sifatida qabul qilindi.

O‘zining “Media qonunlari” monografiyasida M.Maklyuen media faoliyatining to‘rt asosiy prinsiplari ko‘rsatib o‘tgan [148, 268-b.].




1.2.1-rasm. M.Maklyuen media faoliyatining to‘rt asosiy prinsipi

O‘z tadqiqotlari natijasida M.Maklyuen “Medium is the Message” – “Media bu xabar” tezisini ishlab chiqdi. Unga ko‘ra, axborot yetkazish vositasi ko‘p mazmuniga ham, uning qabul qilinishiga ham ulkan ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan, bir axborotning turli kommunikatsiya kanallari (masalan, radio va televideniye) orqali uzatilish mutlaqo hal xil natijaga olib keladi. Mazkur fikrdan kelib chiqqan holda, kanadalik olim axborotni yetkazib berish vositasi axborotning o‘zidan ko‘ra muhimroq, degan xulosaga keladi. Bundan kelib chiqqan holda, tadqiqotchi o‘quvchilarni media olami bilan tanishtirish uchun “Marshal rejasini” ishlab chiqadi. Mazkur reja quyidagicha ifodalangan: “Tahlil qilmaslik. Tushuntirmaslik. O‘quv


xonasini filmlar, televideniye, plastinkalar, yonib o‘chadigan lampalar bilan to‘ldirib, o‘quvchiga o‘zi harakat qilishiga imkoniyat yaratib berish lozim.[147, 192-b.].

M.Maklyuen ilmiy merosini davom ettirgan holda, “media” tushunchasining mazmuni va tipologiyasini X.Pros va X.Bonfadelli o‘z asarlarida tahlil qildi. Ushbu jarayonning oxir-oqibatdagi natijasi mediasavodxonlik bo‘lib, u insonga axborot maydoni – televideniye, radio, kinematograf, matbuot, Internet imkoniyatlaridan faol va to‘laqonli foydalanishga sharoit yaratadi.

Media dunyo axboriy jarayonida muhim o‘rin tutadi. Zero, istalgan pedagogik faoliyatning nazariy asoslari mavjud. Bugungi kunda mediata’lim bo‘yicha o‘ndan ortiq kontsepsiyalar yaratilgan bo‘lsa-da, uning turli yo‘nalishdagi pedagogik tajriba to‘planmasini yaxlit holga keltiruvchi yagona nazariya mavjud emas [129,77-b.]. Mediata’lim nimaligiga aniqlik kiritish, uning ko‘ptarmoqli pedagogik faoliyatdagi o‘rnini ko‘rsatish, maqsadi, vazifalari, kopseptual asoslarini aniqlash maqsadida ko‘plab izlanishlar amalga oshirilmoqda.



1.2.2-rasm. Zamonaviy amaliyotda medianing tuzilmasi



1.2.3-rasm. Mediata'limning umum qabul qilingan bosqichma-bosqich sxemasi

Aslida ayni kunda mediata'limning nimaligi, maqsadi va vazifalari keng miqyosda o'rganilmoqda, salmoqli natijalarga erishilgan. Rossiya pedagogik ensiklopediyasida elektron qomusida berilishicha, mediata'lim - ommaviy axborot vositalari- matbuot, televideniye, radio, kinematografiya, internetni o'rganishdir. Bu boradagi bilimlar nafaqat soha uchun kadrlarni yetkazib berish uchun, balki axborot texnologiyalariga murojaat etadigan har bir insonda mediasavodxonlik - mediamatnlarni tahlil etish, baholash va yaratish ko'nikmasini shakllantirish uchun xizmat qiladi [112, 555-b.].

Mediata'lim termini tor mazmunda ta'limning umummadaniy tarkibiy qismi sifatida qo'llaniladi. U umumiy ta'limning maqsadlariga muvofiq keladi. Mediata'lim so'zining sinonimi sifatida pedagogikada mediamadaniyat va axboriy madaniyat so'zlari ham qo'llaniladi. Ta'limning yangi yo'nalishi, bir so'z bilan aytganda, ommaviy axborot va kommunikatsiya sohasidagi ta'limdir.

Oksford ensiklopediyasida berilishicha, "Mediata'lim mediani o'rganishdir. Mediata'lim yaratilayotgan va tarqatilayotgan mediamatnlar bilan bog'langan. Ta'lim oluvchilarda mediamatnlarning mazmun-mohiyatiga izoh va baho berish

uchun tahlil qila olish qobiliyatini shakllantiradi” [136]. Mediani o‘rganish odatda amaliy tarzda, ya’ni mediamatnlar yaratish bilan bog‘liq amalga oshiriladi. Mediata’lim mediani o‘rganish orqali mediasavodxonlikni oshirishga xizmat qiladi.

YUNESKOning ta’rifi esa quyidagicha: mediata’lim zamonaviy ommaviy axborot vositalari bo‘yicha bilimning nazariya va amaliyotini o‘rganishdir[154]. Maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan bilimlar hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lab ravishda mediavositalardan foydalanib berilsa maqsadga muvofiq. “Yuz marta eshitgandan ko‘ra, bir marta ko‘rgan afzal” tamoyiliga asoslanish lozim.

Rossiyaning “Pedagogik qomusiy lug‘ati”da berilishicha, “mediata’lim - maktab o‘quvchilariga ommaviy kommunikatsiyani o‘rgatuvchi pedagogikaning bir yo‘nalishi”[110, 138-b.]. Ta’riflarning hech birida fanning mohiyati o‘zgarmaydi. Mediata’lim mediamadaniyatni o‘rganishga asoslangan.

1978 yili YUNESKO shafeligida ommaviy mediata’lim dasturi – “General Curricular Model for Mass Media Education” ishlab chiqildi. Hozirgi kungacha mazkur dastur doirasida YUNESKO tomonidan Gryunvald (1982), Tuluza (1990), Parij (1997), Vena (1999), Sevilye (2002) va boshqa shaharlarda yirik xalqaro anjumanlar o‘tkazildi. Jumladan, 1999 yili Vena shahrida o‘tkazilgan xalqaro konferensiya yakuniy hujjatida qayd etilishicha, “Mediata’lim medianing barcha turlari (bosma, grafikali, ovozli, ekranli hamda turli texnologiyalar bilan uzviy bog‘liqdir.

U insonlarga ommaviy kommunikatsiyalarning sotsiumlarda qay tarzda qo‘llanilishini anglab yetish va media vositalaridan foydalanishni o‘rganishga imkoniyat beradi.

Mediata’lim orqali shaxs quyidagi bilimlarni qo‘lga kiritadi:

- mediamatnlarni tahlil qilish, tanqidiy tushunish va o‘z mediamatnlarini yaratish;
- mediamatnlarning manbalarini, ularning siyosiy, ijtimoiy, tijorat yoki madaniy manfaatlari va mazmunini aniqlash;
- media vositalari tomonidan tarqatilayotgan mediamatnlar va qadriyatlarni talqin qilish;

- o‘z mediamatnlarini yaratish va tarqatish, ularga qiziquvchi auditoriyani topish maqsadida mos mediani tanlab olish;
- mediaga erkin ega bo‘lish orqali uni qabul qilish va ishlab chiqarish imkoniyatini qo‘lga kiritish [142, 48-b.].

Xalqaro ilm-fan olamida **“**mediasavodxonlik**”** (media literacy) atamasi ham mustahkam o‘rin egallagan. Valter Benyamin[158], Lorens Engel (Germaniya) [144], Nikolas Negroponte[160], Noam Xomskiy (AQSH) [159], Александр Федоров (Rossiya) [124], Styuart Xoll (Buyuk Britaniya) [161] singari olimlar o‘z asarlarida mazkur tushuncha haqida fikr yuritganlar.

И.В.Челышева esa mediata’limiy modellarni sintetik: estetik-sotsiomadaniy; informatsion-axloqiy-tarbiyaviy; ta’limiy-informatsion-amaliy turlarga ajratadi [94]. Bolalarda intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirish orqali axloqiy sifatlar ham shakllantiriladi. Chunki, media vositalar tarbiyaviy va axloqiy mazmunda bo‘lishi tabiiydir.

И.А.Фатеевaning fikriga ko‘ra mediata’lim modellari: ta’limiy-informatsion; amaliy-utilitar; estetik; rivojlantiruvchi; proteksion-ideologik turlardir [123, 270-b.].

А.В.Шариков “media”ni o‘qitishning texnik vositalari bilan tenglashtiradi va ushbu atamani umumiy didaktik funksiyaga tenglashtiradi: texnik vositalar yordamida o‘rganish”-deb ta’riflaydi [129, 77-b.]. Maktabgacha ta’limda ta’limiy o‘yinlar multimedia asosida tashkil etilsa, bolalar uchun qiziqarli bo‘ladi. Bundan tashqari ular mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

Е.В.Косалапова o‘z tadqiqot ishida kutubxonalar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning axborot madaniyatining tarkibiy qismi sifatida mediasavodxonligini shakllantirishning nazariy asoslarini tahlil qilgan. Axborot tayyorlash va mediata’lim sohasidagi konseptual va terminologik apparatlar o‘rganib media savodxonlikka axborot madaniyatining tarkibiy qismi sifatida qaragan. Bolalarning mediasavodxonligi va axborot madaniyatini shakllantirish bo‘yicha kutubxonalarining faoliyati tahlil qilingan. Yosh maktab o‘quvchilarining axborot madaniyatining muhim tarkibiy qismi sifatida mediasavodxonligini shakllantirish shartlari tahlil qilgan [105].

Media savodxonlikni X.Do‘stmuhammadov “axborot madaniyati” yoki “infoetika” deb ataydi [31,317-b]

Shunday qilib, bizningcha: **maktabgacha yoshdagi bolalarning mediasavodxonligi deganda, bolalarda medianing turli shakllari, janrlari va turlarida axborotlarni tahlil qilish, baholash va shunday axborotlarni yaratish imkonini beradigan ko‘nikma va qobiliyatlar majmuasi tushuniladi. Uning asosini bolaning nima ko‘rayotgani, o‘qiyotgani, eshitayotgani haqida savol berishga rag‘batlantiruvchi model tashkil etadi. Mediasavodxonlik orqali maktabgacha yoshdagi bolalar mediamatnlarni tahlil qilib, rostni yolg‘ondan, muhimni nomuhimdan, tor yondoshuvni keng yondoshuvdan ajratish qobiliyatini qo‘lga kiritadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda mediasavodxonlik mediaiste’molni faol va tanqidiy jarayonga transformatsiya qilishga qaratilgandir.**

XX asrning oxirlariga kelib, G‘arb pedagogikasiga “mediakompetentlik**”** tushunchasi kirib keldi. Bu borada, ayniqsa, nemis olimlari katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. Jumladan, D.Bake, S.Blumek, I.Pottinger o‘z asarlarida “mediakompetentlik” (nemis tilida “medienkompetenz”, ingliz tilida “media competence”) tushunchasini keng qo‘lladi [151-400b]. G.Tulojeski “mediakompetentlik” deganda “mediaga nisbatan malakali, mustaqil, ijodiy va ijtimoiy-mas’uliyatli harakat qilish qobiliyati”ni tushunishni taklif qildi[152,120-b]. O‘z navbtida, Rutgers univesiteti professori R.Kubey (AQSH) mediakompetentlik va mediasavodxonlik tushunchalirini umumlashtirib (media competence/media literacy), “axborotlarni (“messages”) turli shakllarda foydalanish, tahlil qilish, baholash va yetkazib berish qobiliyati” sifatida ta’rif berdi. [145, 120-b] Polshalik olim A.Огановскаяning e’tibor qaratishicha, mediakompetentlik pedagog-tarbiyachi uchun bir ma’no, o‘quvchi va tarbiyalanuvchi uchun butunlay boshqa ma’no kasb etadi.

Qator ilmiy ishlarda “media bilimlilik” (media educated) tushunchasi ham tez-tez uchramoqda. Ushbu terminga rus olimi Н.Змановская “tizimlashgan mediabilimlar, ko‘nikmalar jamlanmasi, mediata’limga nisbatan qadriyatli


yondoshuv, mediata'limni pedagogik jarayonda amaliyotga tadbiq etish darajasi" sifatida ta'riflaydi [101, 24-b].

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimida «Tarbiyachi-pedagogning mediakompetentligi» tushunchasiga tadqiqotchi N.S.Mo'minova quyidagicha ta'rif beradi: "tarbiyachi-pedagogning mediakompetentligi – uning media texnologiyalar vositalaridan faol foydalangan holda samarali pedagogik faoliyatni amalga oshirishga imkon beruvchi integrativ sifati bo'lib, media texnologiyalarni joriy etishning turli usullariga ega bo'lishi, media asosida o'quv va tarbiyaviy faoliyatning mazmuni va uslubini tanlashi, media vositalari asosida tarbiya va ta'lim mazmunining o'zgaruvchanligini ta'minlashi, media vositalari asosida tarbiyalanuvchining subyekt pozitsiyasini boshqarishi, media orqali o'quv ma'lumotlarini olishi va taqdim etishi, media axborotlar oqimini pedagogik jihatdan oqilona boshqarish hamda o'quv media mahsulotlarini yaratishida namoyon bo'ladi"[39]

N.R.Rustamovaning fikriga ko'ra "mediakompetentlik mediasavodxonlik, mediabilimdonlik, mediamahorat kabi mediamadaniyatning tarkibiy qismlaridan birinigina tashkil etadi. Ushbu tarkibiy qismlarning barchasi shaxsning media borasidagi fikrlari, foydalanish ko'lami va mediamahsulotlarni ishlab chiqa olishida muhim ahamiyat kasb etadi" [55].

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, maktabgacha yoshdagi bolalarda mediakompetentlik ularning mediasavodxonligi, mediabilimliligi bilan uzviy tushuncha bo'lgani holda, ulardan asosiy farqi **mediakompetentlik** olingan axborotlarni amalda qo'llashga, jumladan, yangi axborotlar yaratishda foydalanishga qaratilgani bilan ajralib turadi.

Amerikalik olim J.Potterning fikricha, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mediata'lim uch komponentga asoslangan [150,423-b.].



1.2.4-rasm. J.Potter maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mediata’lim komponentlari

O‘z navbatida, media pedagog S.Beyeren yosh avlodning bilim va ko‘nikmalarni media vositalari orqali oshirishda qo‘yidagi muhim ko‘nikmalarni ajratib ko‘rsatadi:

- Ortiqcha “shovqin”larga chalg‘imagan holda, mediamatn mazmunini anglab etishga tayyorlik va qobiliyat.
- Mediamatnlar kuchi ta’sirini tushunish va hurmat qilish.
- Yetkazilgan axborotning auditoriya tomonidan qabul qilinishida emotsional va asoslangan reaksiyani ajrata bilish va tegishli tarzda harakat qilish.
- Mediamatnlar mazmuni haqida kompetent taxminlarni rivojlantirish.
- Janrlar xilma-xilligini anglab etish, ularning farqiga borish.
- Mediamatnlar haqida, ularning manbaidan qat’iy nazar, tanqidiy fikrlash.
- Turli xil media vositalarining “tili”ni tushunish, ularning ta’sir kuchini o‘rganish [133,57-b.]. Olimning nuqtai nazariga ko‘ra, media texnologiyalar vositasida ta’lim oluvchilarda hissiy va ijodiy intellektni rivojlantirishga erishiladi.

Uzatilayotgan ma’lumotlarni tahlil qilish orqali bolalarda mantiqiy tafakkur rivojlanadi.

Nemis pedagogi V.Veber bolalarning media sohasidagi bilimligiga doir besh asosiy qobiliyatdan iborat tuzilmasini ishlab chiqdi:

- Media taqdim etishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlarni saralash va ulardan foydalanish.
- O‘z mediamahsulotini yaratish.


Mazmun nuqtai nazaridan zarur bo‘lgan bilim va tahliliy ko‘nikmalar:

- Media asoslangan turli kreativ imkoniyatlardan foydalanish.
- Mediadan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaratish.
- Mediamahsulotlarni ishlab chiqarish va tarqatish bilan bog‘liq iqtisodiy, ijtimoiy, texnikaviy, siyosiy shartlar [88].

Shu bilan birga, adabiyotlarda bolalarning mediasavodxonligini shakllantirishda tarbiyachi-pedagoglarning o‘rni beqiyosligi birday e’tirof etiladi. Shu ma’noda, rus olimlari О.Давидова [93,99-b], Л.Иванова [102,48-b], В.Протопова [111,285-b], О.Сурова [117,54-b], Е.Ушаковалар [122,10-b] fikriga ko‘ra, zamonaviy pedagog-tarbiyachi bolalarga bilim berish uchun quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim:

- ixtisosligiga bevosita bog‘liq axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan kasbiy faoliyatida foydalanish;
- media va internet tarmog‘idagi ta’lim resurslari haqida tasavvurga ega bo‘lish, ulardan foydalanishni bilish;
- elektron ta’lim resurslarining pedgogik jihatlarini baholay olish;
- telekommunikasiya vositalaridan foydalana olish;
- forumlar, anjumanlar, videokonferensiyalar tartibida ishlay olish;
- tayyor multimediya obyektlaridan foydalanish, o‘zi shunday obyektlarni ishlab chiqishi;
- axborotni himoyalashning asosiy vositalarini bilishi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga media vositalari orqali ta’lim va tarbiya berish uchun, И.Донина va A.Гопкинaning fikriga ko‘ra, keng qamrovli tayyorgarlik zarur bo‘lib, ushbu jarayon uch bosqichdan iborat.[99,21-b.].



1.2.5-rasm. Gopkina A va Donina I. Mediavositalar asosida maktabga tayyorgarlik bosqichlari

Т.Борисова o‘z tadqiqot ishida kichik yoshdagi bolalarning axborot madaniyatining muhim xususiyatlari va ta’lim sohasida uning rivojlanishiga metodologik yondashuvlar aniqlab, ularning psixologik va pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda, bolalarning axborot madaniyatini rivojlantirish modelini ishlab chiqqan [87]. Maktabgacha ta’lim jarayonida o‘quv-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda media o‘yinlardan foydalanish bolalarni bilimga olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi.

А.Ю.Дейкина maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim va qiziqishlarni rivojlantirish muammosining alohida dolzarbligini ta’kidlab, buning uchun media-ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish juda istiqbolli yondashuv deb hisoblaydi. Bolalar uchun davriy nashrlar chop etishni muhim deb hisoblaydi. Media-ta’lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning anglash qiziqishlarini rivojlantirishni

ta’minlaydigan vositalar, shakllar va usullar aniqlagan. Anglash qiziqishlarini maktabga tayyorgarlik jarayonida media-ta’lim instrumentlaridan foydalangan holda rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqdi [97].

Media savodli bolalarni tarbiyalash yoshga bog‘liq xususiyatlarga muvofiq, masalan, kuzatish, qiziqish, savollarga javob topish qobiliyati kabi bir qator fazilatlarni rivojlantirish imkonini beradi. Maktabgacha va maktab yoshdagi bolalarni qidirish ko‘nikmalarini o‘rgatish, axborotni mustaqil baholash muhimdir.

Sh.Paxrutdinovning fikricha, mediata’limning asosiy vazifasi “Zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida yangi avlodni turli axborotni tushunishga, uning ruhiyatga ta’siri oqibatlarini anglashga, texnik vositalar yordamida kommunikatsiyaning og‘zaki bo‘lmagan shakllari asosida muloqot usullarini o‘zlashtirishga o‘rgatishdir”[45,12-b.]. Olimlar maktabgacha va maktab yoshdagi bolalarning kompyuterlar, planshetlar, telefonlar bilan haddan tashqari sevimli mashg‘ulotlari aqliy va jismoniy rivojlanishga ta’sir qilishi mumkin, deb hisoblashadi. Ushbu masalaning yechimlaridan biri bolalarni texnikadan to‘liq himoya qilish bo‘lishi mumkin, ammo bu ilg‘or foydalanuvchilarni kutayotgan ilg‘or media texnologiyalarining zamonaviy dunyosida deyarli mumkin emas. Deyarli yoshligidan boshlab, bolalar ommaviy axborot vositalarini o‘zlashtiradilar va bu makondagi bola butunlay ishonch hosil qiladi. Buning afzalliklari bor: ta’lim darajasini oshirish, turli odamlar bilan muloqot qilish va kamchiliklar: hayotiy tajribaning yetishmasligi virtual dunyosining afzalligi bolaning psixikasi va sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatishi va nafaqat yomonlashuv, tashvish, asabiylashish, onlayn tahdidlarning qurboni bo‘lish xavfi ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga, balki qaram xatti-harakatlarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin.[62,117-b.] .

Umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki tarbiyalanuvchilarga zamonaviy media vositalaridan foydalangan holda ta’lim berish uchun pedagog va tarbiyachilar quyidagi omillarni o‘zida shakllantirishi zarur:

1.1-jadval.

Bolalarga mediata'limni o'rgatuvchi pedagog va tarbiyachilar egalashi lozim bo'lgan malakalar

№	Ko'rsatkich	Asosiy mezonlari
1.	Motivatsiya	Mediata'lim sohasidagi o'z bilim va ko'nikmalarini oshirishga intilish
2.	Axborot	Pedagog mediata'lim va mediavositalari haqida ega bo'lgan axborotlar darajasi
3.	Metodika	Pedagogning metodik qobiliyati, pedagogik mahorati
4.	Amaliyot	Turli ko'rinishlardagi o'quv jarayonlarida ta'lim sifati
5.	Kreativlik	Pedagogning o'z faoliyati va o'quv jarayoniga nisbatan ijodiy yondoshuvi

Tarbiyachi va pedagoglarning yuqorida ko'rsatilgan malakalarga ega bo'lgan taqdirda, ular bolalarda mediata'lim asosida quyidagi bilim va ko'nikmalarni shakllantira olishi mumkin bo'ladi:

Shunday qilib, **mediata'lim** – global axborotlashuv sharoitida shaxsni media tomonidan tarqatilayotgan axborotlarni tanlash, saralash, tahlil qilish va tanqidiy baholashga doir nazariy bilimlar majmui bilan qurollantirishga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim turlaridan biri.

Mediani qabul qilish (anglash)	**Mediadan foydalanish**	**Mediamahsulotni yaratish**
- mediani uzatish qurilmalarini ajrata olish (telefonni kompyuterdan, planshetni noutbukdan va h.kx.); - mediamatnlarning kimga qaratilganini anglash (auditoriya, kattalar yoki bolalar); - yolg'onni rostdan ajratish.	- foydali va keraksiz axborotlarni ajratish yuzasidan qat'iy mezonlarga ega bo'lish; - tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish; - olingan axborotlarni hayotda qo'llash yuzasidan tasavvurga ega bo'lish.	- mediani uzatish va yaratish qurilmalaridan (masalan, telefon yoki planshet) foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish; - ijodiy fikrlash; - o'z fikrini ifodalashi va yetkazib berish; - kreativlik.

1.2.6-rasm. Bolalarda mediata’lim texnologiyalari asosida bilimlarini shakllantirish

Uning asosiy maqsadi shaxsga media tomonidan tarqatilayotgan axborotlarni tanlash, saralash, tahlil qilish va tanqidiy baholashga imkon beruvchi mediasavodxonlikni shakllantirish asosida OAV tomonidan tarqatilayotgan axborotlarga nisbatan ehtiyojkorlik, oqillik, ijodiy yondashish, shuningdek, axborotlarni tanqidiy qabul qilish ko‘nikma-malakalarini shakllantirishdan iborat. [68, 698-b]

Yuqoridagilardan kelib chiqib biz maktabgacha ta’lim tizimida **“Mediata’lim – bolalar yoshiga mos media vositalarni o‘rganishga ko‘maklashadigan, ularning intellektual, ijodiy qobiliyatini oshirishga, rivojlanishiga hissa qo‘shadigan, mediakontentni saralash, o‘rganish va tahlil etish kompetensiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonidir”-** deb ta’rif berdik.

Shu bilan birga, bolalarda mediata’limni amalga oshirish maktabgacha ta’lim muassasasi bilan cheklanib qolmasligi kerak. Zero, asosiy ta’lim va tarbiyani bolalar uyda, oila bag‘rida oladi. Shu ma’noda, ota-onalarning o‘zi ham mediamutaxassisga aylanib, farzandlarining mediabilimliligi va mediasavodxonligini shakllantirishga intilishlari lozim. Bunda ota-onalarning rolini, adabiyotlar tahlilidan kelib chiqqan holda, uch xil kategoriyada ko‘rish mumkin: senzor (ta’qiqlovchi) va liberalizm (erkin) va eng optimal rag‘batlantiruvchi-tushuntiruvchi ota-onalar.

Senzor ota-onalar farzandlarini mediavositalaridan imkon qadar chetda saqlash, ulardan foydalanishni ta’qiqlash tarafdorlaridir. Buning imkoniyati bo‘lmagan taqdirda esa ular farzandlari foydalanayotgan kontentni qat’iy nazorat qilish va “filtrlash”ni ma’qul ko‘radilar. Natijada oilada turli-tuman kelishmovchiliklar, mojarolar, ko‘ngilsizliklar kelib chiqadi va bu oxir-oqibatda bolalarning tarbiyasi, aqliy va ijodiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi.

Liberalizm (erkinlik) tarafdori bo‘lgan ota-onalar, bandligi yoki boshqa sabablarga ko‘ra, farzandlarining media vositalari bilan muloqotiga mutlaq

aralashmaslikni afzal ko‘radilar. Natijada voyaga yetmagan, ongi hali to‘liq shakllanmagan, axboriy immunitetga ega bo‘lmagan bola ulkan mediamakon bilan yolg‘iz qoladi. А.А.Немирич bola rivojlanishining ilk ikki yiliga “nutq shakllanishga qadar bo‘lgan davr” deya ta’rif beradi. Ikki yoshdan keyin bolada anglash va nutq birgalikda rivojlanib, ularning sinergiyasi kuzatiladi. Pedagoglar va psixologlarning tadqiqotlariga suyangan holda А.Немирич, kattalar nazoratisiz maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalash standartlariga mos kelmaydigan televideniye, kompyuter o‘yinlari, ko‘ngilochar dasturlardan doimiy foydalanish bolaning rivojlanishida orqaga ketishni yuzaga keltirishini ta’kidlaydi. Ayniqsa, nutq qobiliyati rivojlanishi jiddiy zarar ko‘radi, zero teleko‘rsatuvlarni ko‘rganda yoki kompyuter o‘ynilari bilan band bo‘lganda bola na ichki va na tashqi nutq instrumentlarini ishlatishiga ehtiyoj qolmaydi [109, 59-b.].

Bizning fikrimizcha, **eng optimal toifaga kiruvchi rag‘batlantiruvchi-tushuntiruvchi ota-onalar senzura va liberalizm tamoyillarini mujassamlashtirgan holda, farzandlariga media vositalari orqali uzatilayotgan barcha axborotlarni yaxshi va yomonga, kerak va keraksizga, foydali va zararliga ajratib,har birining salbiy va ijobiy jihatlari haqida tushuntirish bera oladilar, asosiy e’tiborni bolaning intellektual va ijodiy rivojlanishiga qaratadilar.** Bu orqali nafaqat bolaning axborot dunyosi oqilona yo‘lda shakllanadi, balki ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi muloqot ham o‘zaro ishonch va teng huquqlilikka asoslangan konstruktiv dialog sifatida namoyon bo‘ladi.

§ 1.3 Maktabgacha ta’lim tizimida mediata’lim texnologiyalaridan foydalanish amaliyotdagi holati

Yangi O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e’tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi, jismonan va ma’nan yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi, ularning qobiliyat va iste’dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining 2018 yil 18 iyundagi 1-mh “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” da bir qator vazifalar belgilangan bo‘lib, jumladan, “....ta’lim-tarbiya jarayoniga jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish”[12] zarurligi ta’kidlangan. O‘zbekiston maktabchaga ta’lim muassalarida 2018 yildan boshlab “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o‘quv dasturi asosida ish olib boriladi. “Ilk qadam” davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me’yoriy-huquqiy hujjat bo‘lib, unda maktabgacha ta’lim muassasasining maqsad va vazifalari, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g‘oyalari ifodalangan, shuningdek, bolani ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilangan.

Dasturga ko‘ra, o‘quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi bolalarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan iboratdir.

“Ilk qadam” dasturi bola rivojiga individual yondashuv, uning shaxsini hurmat qilish, uning manfaatlari, ehtiyojlari va rivojlanish darajasini hisobga olish, hissiy qulaylik borasida g‘amxo‘rlik qilish, erkin o‘zini namoyish qilishi uchun sharoitlar yaratishga intilishni ko‘zda tutadi. Shu sababli, rejalashtirish bilan bir qatorda, bola rivojlanishini kuzatib borish pedagog faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog bolani va uning o‘zini tutishi sabablarini yaxshiroq tushunish, bola rivojini, uning ichki dunyosini ko‘rish, qo‘llab-quvvatlash, rivojlanish yo‘llarini belgilash, ehtiyoj va manfaatlarini aniqlash uchun bola hayotini muntazam kuzatib boradi.

Ota-onalar hamda tarbiyachilarga yordam tariqasida “Ilk qadam” mediadoyiha shaklida ham amalga oshirildi. U 5-6 yoshgacha bo‘lgan bolalarning rivojlanishi, tarbiyasi va psixologiyasiga oid ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan. Unda bolaning erta rivojlanish bosqichidagi barcha jihatlar, maktabgacha ta’limning yangi usullari va sohaning huquqiy islohotlari haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Tarbiyalanuvchilarga bilim va ko‘nikmani etkazib bera olish tarbiyachi-pedagogdan pedagogik mahorat, yetarli bilim va kasbiy kompetentlilikni talab etadi. Zamon talabiga mos ravishda dars mashg‘ulotlarini o‘tish bolalarning aqliy va ijodiy rivojlantirishga turtki bo‘la oladi.

Bugungi kunda Respublikamiz MTTlarda tarbiyachi pedagoglar mashg‘ulotlar jarayonida multimedia vositalaridan foydalanib kelmoqdalar. Bunday hollarda bolalarni aqliy zakovati va holati hisobga olinadi, yani bolani jismonan ham ruhan charchatmaslik lozim. Shuni hisobga olib multimediadan foydalanish vaqti 5-7 daqiqani tashkil etishi zarur.

N.Begmatova tomonidan maktabgacha ta’lim muassasalarida axborot vositalaridan foydalanish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotda o‘quv-tarbiyaviy faoliyatga tatbiq etiladigan multimedia texnologiyasi an’anaviy uslublarga nisbatan ma’lum bir afzalliklarga ega ekanligini asoslanadi. Uning fikricha “bolalarning fikrlash qobiliyati oshadi; bir vaqtning o‘zida ham ko‘radi, ham eshitadi (miyaning o‘ng va chap yarim sharlari bir vaqtda faollik ko‘rsatadi); an’anaviy usulga nisbatan bolalarga o‘rgatiladigan materiallarning hajmi ortadi; mashg‘ulotlarning samaradorligi oshadi; kompyuter savodxonligini shakllantirishga yordam beradi; didaktik materiallarni animatsiyalar orqali ko‘rsatish imkoniyati mavjud; turli xil jangarilik, qo‘poruvchi o‘yinlar o‘rniga ta’limiy-rivojlantiruvchi o‘yinlardan foydalanish mumkin[25,7-b.].

Xalq ta’limi vazirligi huzurida “Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi” tashkil etildi. Markazda MTTlarida multimedia vositalaridan ta’lim-tarbiya jaraënida foydalanish maqsadida “Rang va shakllarni o‘rganamiz” dasturi bo‘yicha sakkiz turdagi multimedia vositasi tayyorlangan. Matematikadan elementar bilim berishga oid multimediali ta’lim disklari (B.Boltayev, A.Valixonov, M.Mahamov va B.Hayitovlar) shular jumlasidandir [24,55-b.].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda televideniye nihoyatda muhim o‘rin tutadi. Yurtimizda bolalar uchun faoliyat yuritayotgan “Bolajon”, “Aqlvoy” telekanallari, ularda efirga

uzatilayotgan dasturlar o‘rganildi.(1-ilova) 2013 yil 1 iyundan «Yoshlar» teleradiokanali qoshida «Bolajon» telekanali ish boshladi. 3 yoshdan 10 yoshgacha bo‘lgan bolalarga mo‘ljallangan «Bolajon» yangi raqamli telekanalning asosiy vazifalari bolalarda atrof-olamni idrok etish, ularda milliy qahramonlar, o‘zbek xalqi va boshqa xalqlarning xalq og‘zaki ijodi personajlari misolida ezgulik va adolat tushunchalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga yo‘naltirilgan bilim beruvchi televizion dasturlarni namoyish etishdan iboratdir. Bundan tashqari bolalarning qiziqishlari, aqliy va ijodiy faolligini rivojlantirish maqsadida ko‘ngilochar-o‘quv televizion ko‘rsatuvlar, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun mo‘ljallangan intellektual o‘yinlar va viktorinalar havola etish orqali ularda aqliy hamda jismoniy mehnatning boshlang‘ich ko‘nikmalari va madaniyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston MTRK ma’lumotlariga ko‘ra 2013-2023 yillar davomida “Bolajon” telekanalida turli tarbiya va ta’lim turlariga yo‘naltiruvchi ko‘rsatuvlar efirga uzatilib borilmoqda.

2021 yil 22 martdan boshlab 3 yoshdan 9 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan, ertalab soat 07.00dan to kechki 22.00ga qadar efirga uzatiladigan o‘zbek va rus tillaridagi “Aqlvoy” telekanali ham o‘z faoliyatini boshladi. “Telekanalning rasmiy internet saytida ma’lum qilinishicha telakanalda Rossiya, AQSH, Janubiy Koreya, Xitoy va boshqa ko‘plab mamlakatlarda mashhur jahon studiyalari tomonidan yaratilgan eng yaxshi animatsion serial va dasturlarni namoiyish etadi [152]. Sifatli yorqin animatsion filmlar bolalarda juda katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Bolalar tarbiyasida multfilmlar muhim o‘rin tutadi. Psixologlarning fikricha: “Multfilmlarni nazoratsiz tomosha qilish bolaning ko‘rish qobiliyati, vazniga, shuningdek uning ruhiyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Psixolog M.A.Xorsni fikricha "Multfilmlar o'ylab topilgan narsa, o‘ziga xos virtuallikdir. Bola televizor qarshisiga o‘tirganda real dunyodan mana shu virtuallikka tushadi". Fantastik va virtual olamda bola o‘ziga do‘stlar topadi, qiziqarli voqealarni birgalikda boshdan kechiradi va natijada u haqiqiy dunyoda bularning barchasidan o'tish imkoniyatini yo'qotadi. Xorsning ta’kidlashicha, multfilmlar orasida shaxsni

rivojlantiruvchi tarbiyaviy va mazmunli filmlar ko‘p. Psixolog bolaning ota-onasi bilan birgalikda multfilm tomosha qilishni tavsiya qiladi. Bunday holda, ota-ona bolaning qiziqishlarini hisobga olishi, multfilm voqealarini muhokama qilishi, bolaning xotirasini rivojlantirish ustida ishlashi mumkin deb hisoblaydi. [166]

Tajriba sinov ishlarida ota-onalar bilan suhbatlar o‘tkazish jarayonida amin bo’ldikki, bugungi kunda ota-onalar uy ishlarini bajarishlari yoki xotirjamlik bilan dam olishlari paytini hisobga olib bolaga elektron media vositalardan multfilm tomosha qilishga ruxsat beradilar. Ammo bu jarayon farzandlari uchun yomon odatga aylanib borayotgani va tez orada bolani televizor, telefon, planshet va internet tarmog’idan uzoqlashtirish juda qiyin bo‘lishi haqida o‘ylamaydilar. Natijada bola bilan doimiy aloqa, muloqot ancha kamayadi. Ota-onalar va tengdoshlar bilan to‘liq aloqaning yo‘qligi sababli bolalar nutqining shakllanishida kechikish va talaffuzda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Media olamida namoyish etilayotgan ayrim multfilmlar bolaning rivojlanishi va ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mutaxasislarning fikricha ular bolalarda injiqlik, itoatsizlik, tajovuzkorlik, asabiylashish hattoki ruhiy kasalliklarni shakllantiradi. Shunga asoslanib, ota-ona bolaning televizor oldida o‘tkazadigan vaqtini nazorat qilishi kerak.

Xalqaro talablarga ko‘ra, maktabgacha yoshdagi (3-7yosh) bolalarga kuniga 30daqiqagacha, boshlang’ich sinf maktab yoshidagi bolalarga (7-10yoshgacha) kuniga 30-50 daqiqagacha multfilm tomosha qilish tavsiya etiladi. Undan katta o‘quvchilar (11-18 yosh) kuniga 1-3soat davomida multfilm ko‘rishlari mumkin. Bolaning ko‘zidan televizor ekrangacha bo‘lgan masofa uch metrdan kam bo‘lmasligi kerak [167]

Olib borilgan tahlillar va xulosalarga ko‘ra, bolalar uchun animatsion filmlarni tanlash jiddiy yondashuvni talab qiladi. Multfilmlar bolaning ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, intellektual va ijodiy rivojlanishiga yordam berishi kerak.

Ta’limiy rivojlantiruvchi multfilmlar, intellektual o‘yinlar va viktorinalar, ko‘ngilochar soatlar bolalarning jamoa bo‘lib harakat qilishiga va o‘z fikrini erkin bayon qila olish, aqliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Telekanallarda bolalar uchun ko‘rsatilayotgan animatsion filmlarning asosiy qismi

xorijda ishlab chiqarilgani ham afsusga molik. Natijada, o‘zbek bolalarining ongi va tafakkuri, aqliy va ijodiy qobiliyatlari milliy mentalitetimiz, urf-odat va an’analarimizga zid bo‘lgan hayotiy tamoyillar asosida shakllanib bormoqda. Bu millat buguni, kelajagi va genofondi uchun jiddiy muammodir.

G‘arb kinosanoatida “Supermen”, “O‘rgimchak odam”, “Betmen” va boshqa turli fantastik personajlar dunyoning deyarli barcha mamlakatlari, shu jumladan, O‘zbekistonda ham maktabgacha yoshdagi bolalarning sevimli qahramonlari sanaladi. Mazkur tendensiya mamlakat kinosanoatida havas qilsa arziydigan, o‘ziga jalb qila oladigan milliy qahramonlarning yo‘qligi tufayli yuzaga kelgan. Amir Temur, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari dunyo tamaddunida misli ko‘rilmagan iz qoldirgan buyuk ajdodlarimiz haqida milliy mediamakonda sifatli, qiziqarli va mazmunli mediamahsulotlar yaratilmagani sababli yosh avlod chet el qahramonlarining ortidan ergashmoqda.

Shunday qilib, olib borilgan tahlil maktabgacha ta’lim tizimida qator muammolar mavjudligini, shu jumladan mashg‘ulotlar jarayonida imkon darajasida pedagoglar faqatgina multimedia vositalaridan foydalanib kelmoqdalar. Ammo tarbiyalanuvchilarning mediasavodxonligiga e’tibor qaratilmayapti. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarning mediasavodxonligini oshirish, media vositalardan foydalanganda aqliy va ijodiy rivojlantiruvchi dasturlardan foydalanishga jalb etish tarbiyalanuvchilarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga erishishning eng samarali yo‘li – o‘qitish tizimiga mediata’limni tatbiq etish sanaladi.

Adabiyot va ilmiy manbalarni tahlil qilish natijasida mediata’limning yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim degan xulosaga keldik:

1. Oila, ta’lim muassasalari bilan media o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.
2. Ota-onalarning mediasavodxonligini oshirish.
3. Tarbiyachi-pedagoglarni mediata’limni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

4. Malaka oshirish tizimi vositasida ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning mediamadaniyatini rivojlantirish.
5. Tarbiyachi-pedagoglar, ota-onalarda axborot xuruji, tahdid va shu turdagi xavfsizlikka qarshi media savodxonlikka oid ma’naviy-madaniy immunitetini shakllantirish;
6. Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida voyaga etmaganlarning media muhitda samarali harakatlanish ko‘nikma, malakalariga ega bo‘lishlarini ta’minlovchi o‘quv va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.
7. Media vositalarning bola shaxsi kamolotini ta’minlashdagi ahamiyatini oshirish.
8. Bolalarni mediatexnologiyalardan foydalanishda qaramlik hissi bilan emas, balki, o‘qib- o‘rganishni maqsad qilishi lozim;
9. Videokontentni taxlil qilish savodxonligini oshirish;
10. Media savodxonlik va axborot madaniyati sohasida yetakchi mamalakatlarning ilg‘or tajribalarini ommalashtirishga doir nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Shunday qilib, muammoni nazariy o‘rganish xorijiy mamlakatlarda mediata’limni o‘qitish jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha katta tajribalar to‘planganligini ko‘rsatdi. O‘zbekiston sharoitida esa garchi medianing jamiyat va shaxs hayotidagi o‘rni, ahamiyati tobora ortib borayotganligiga qaramay, mediata’limni o‘qitish jarayonida qo‘llash borasida hanuzgacha jiddiy qadam tashlanmaganligi ma’lum bo‘ldi. Mazkur fikrning isboti elektron axborot vositalari, xususan, nashr ishlari bilan tanishish chog‘ida sohaga oid ma’lumotlar deyarli uchratilmaganligi bilan izohlanadi. Mediata’limni takomillashtirib borish asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning media vositalardan foydalanish savodxonligi oshiriladi, intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga erishiladi.

1.2-jadval

Mediata'limni rivojlantirishga oid xorijiy tajribalar va O'zbekistondagi holat qiyosiy jadval

Xorijiy davlatlar	Olib borilgan ishlar	O'zbekistondagi holat
Finlandiya	Finlyandiyada har bir inson uchun mediasavodxonlikni rivojlantirish imkoniyatlari yaxshilandi, u "Mediasavodxonlik hamma uchun" shiori ostida rivojlanmoqda**.** Yaxshi, mazmunli hayot tarziga hissa qo'shadigan mediasavodxonlik fuqarolik omilining muhim elementi hisoblanadi. Mediasavodxonlik sifatli, tizimli va keng qamrovli media ta'lim orqali targ'ib qilinadi va qo'llab-quvvatlanadi.	O'zbekistonda media va axboriy savodxonlikni oshirishga YUNESKO hissa qo'shmoqda 2018 yil "Media va axboriy savodxonlikni va O'zbekistonda noaxboriy teledasturlarni tayyorlashda OAV salohiyatini ilgari surish" loyihasi amalga oshirildi. Loyihaning asosiy yo'nalishidan biri yoshlarda media va axborot savodxonligini oshirish bo'lib, u orqali o'rta maxsus kasb hunar ta'limi tizimida media va axborot savodxonligini dars berish jarayoniga kiritish bo'yicha ishlar olib borilib, bu borada uchta o'quv qo'llanma yaratilib, chop etildi.
Germaniya	Germaniya o'qitish tizimida media pedagogika mustahkam o'rin olgan. Media pedagogikaning predmeti sifatida media bilan muloqot qilish, munosbatga kirishning turli shakllari belgilangan bo'lib, u quyidagi asosiy yo'nalishlardan tarkib topgan: 1. Media tarbiya. 2. Media didaktika. 3. Media tadqiqot.	Xalq ta'limi vazirligi huzurida "Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi" tashkil etildi. Markazda MTTlarida multimedia vositalaridan ta'lim-tarbiya jaraënida foydalanish maqsadida "Rang va shakllarni o'rganamiz" dasturi bo'yicha sakkiz turdagi multimedia vositasi tayyorlangan. Matematikadan elementar bilim berishga oid

		multimediali ta’lim disklari shular jumlasidandir.
Kanada	Kanada mediata’limining asosiy tayanch tushunchalarini taqdim etdi, 1987 yilda esa mediata’lim bo‘yicha birinchi tayanch darslik yaratildi. Mamlakatda yirik korporatsiyalarning moliyaviy qo‘llab-quvvatlashi evaziga 1990 yilda “Concerned Children’s Advertisers” (CCA), “TV va men”, “Salom, bolalar!” (“Long Live The Kids”) nomli bolalar mediata’limi teleko‘rsatuvlari tashkil etildi.	2013 yil 1 iyundan «Yoshlar» teleradiokanali qoshida «Bolajon» telekanali ish boshladi. 2021 yil 22 martdan boshlab 3 yoshdan 9 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan, ertalab soat 07.00dan to kechki 22.00ga qadar efirga uzatiladigan o‘zbek va rus tillaridagi “Aqlvoy” telekanali ham o‘z faoliyatini boshladi.
Buyuk Britaniya	1980 yilda angliyalik tadqiqotchi L.Masterman mediata’lim mohiyati, tayanch tushunchalari, maqsadi, vazifalari, o‘ziga xos jihatlari, qonuniyatlari, bosqichlari va texnologik jihatlarini o‘zida aks ettirgan 18 ta ustuvor tamoyildan iborat Konsepsiyani yaratdi. 1988 yilda esa mediata’lim Angliya va Uels qirolligida Milliy o‘quv dasturining asosiy tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ldi. 2003 yilda mediata’limini olib boradigan pedagoglar uchun o‘quv qo‘llanmasi yaratildi. Unda “Media va axloq” mavzusini o‘rganishda samarali bo‘lgan metodikaning mohiyati ochib berildi.	Sh.Paxrutdinovning fikricha, mediata’limning asosiy vazifasi “Zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida yangi avlodni turli axborotni tushunishga, uning ruhiyatga ta’siri oqibatlarini anglashga, texnik vositalar yordamida kommunikatsiyaning og‘zaki bo‘lmagan shakllari asosida muloqot usullarini o‘zlashtirishga o‘rgatishdir”
AQSh	Ayni vaqtda AQShning turli mintaqalarida mediata’lim bo‘yicha o‘nlab assoцiatsiya va dasturlar (m: “Mediasavodxonlik uchun strategiya” (“Strategies for Media Literacy”; San-Fransisko), “Milliy mediasavodxonlik loyihasi” (“National Media Literacy Project”; Nyu-York), “Media o‘quv markazi” (“Educational Media Center”; Nyu-York) faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.	Bugungi kunda matbuot, noshirlik va axborot sohasida tegishli huquqiy asos yaratilgan bo‘lib, 10 dan ortiq qonun va 30 dan ortiq qonunosti hujjatlari qabul qilingan. 1677 ta matbaa korxonalari, 118 ta nashriyot davlat ro‘yxatiga olingan. Zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan alisher

		navoiy nomidagi o‘zbekiston milliy kutubxonasi, 14 ta hududiy birlik axborot-kutubxona markazi, tuman va shahar markazlaridagi ta’lim mussasalarida 200 ga yaqin axborot-resurs markazlari tomonidan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko‘rsatilmoqda.
Rossiya	Rossiya mediata’limi rivojlanishining tarixini tadqiq qilish hozirgi zamon sharoitlarida turlari, imkoniyatlari va harakat diapazoni doimiy ravishda kengayib hamda to‘ldirib boriladigan ommaviy axborot vositalari qanday qilib eng asosiy “qurollardan” biriga aylanib qolganligini aniqlash imkonini berdi. XX asr boshlarida fotografiya, matbuot, radio, kinematograf bo‘lib, keyin esa ularning o‘rnini televidenie va video egallay boshladi; yillar o‘tgan sayin esa keng yoyilib ketgan kompyuter tarmoqlari, Internet, DVD va shu kabilar endi ularning o‘zlarini surib chiqara boshladi	O‘zbek tilidagi birinchi elektron kutubxona – www.ziyouz.com 2004 yili tashkil etilgan bo‘lib, hozirda portalda ko‘p qismi noyob nashrlardan iborat 10000 dan ortiq elektron kitoblar mavjud. Android platformasidagi telefonlar uchun 30 dan ortiq kitob ilovalari ishlab chiqilgan. Hozirgi kunga qadar har bir ilovani 1 mln dan ortiq foydalanuvchi yuklab olgan.

Birinchi bob bo‘yicha xulosalar

Olib borilgan nazariy-ilmiy tahlillar mavzu doirasidagi muammolarni, xususan, maktabgacha yoshdagi bolalarni mediata’lim texnologiyalari asosida rivojlantirishning nazariy tadqiq qilishga bag‘ishlangan ishlarning bugungi kundagi taqchilligi va tizimlashtirilmaganligi hamda shu bilan birga dolzarbligini ko‘rsatdi.

Maktabgacha ta’lim tizimida bolalarni intellektual va ijodiy rivojlantirish ishlari yuzasidan tarixda va bugungi kunda turli xil munozarali fikrlar mavjud bo‘lib, bu qarashlar turli manbalarda tadqiqotlarda, ilg‘or pedagogika va psixologiya vakillarining ilmiy asarlarida yillar davomida sayqal topib kelgan, ammo mediata’lim texnologiyalari asosida rivojlantirish muammosi pedagogikada o‘zining muayyan nazariy-metodologik bazasiga ega bo‘lsa-da, ushbu muammoga daxldor tadqiqotlar ko‘lami hali o‘zining mukammal yechimlariga ega bo‘lmaganligi ma’lum bo‘ldi.

Maktabgacha ta’lim tizimida mediata’lim texnologiyalarini targ‘ib etish pedagogik muammo sifatida o‘rganishga qaratilgan nazariy-ilmiy manbalarni tadqiq etish “intellekt”, “ijodiy qobiliyat”, “mediata’lim texnologiyasi” kabi tushunchalarning tarkibiy qismini aniqlash va shu asosda maktabgacha yoshdagi bolalarning intellekti va kretiv, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha batafsilroq mushohadalar yuritish imkonini beradi. Bu imkoniyat bollarda ijodiy resurs va potensiallarini maqsadli shakllantirish ishlarini jonlantirishga hissa qo‘shadi.

Maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning aqliy va ijobiy qobiliyatlarini mediata’lim texnologiyalari orqali ularda mediasavodxonlikni shakllantirishga shart-sharoit yaratiladi. Shu bilan birga, biz mediasavodxonlikni faqat mediavositalaridan to‘g‘ri foydalanish va mediamahsulotlarini yaratish bilan cheklanmay, u yaxlit bir tizimning boshlang‘ich bosqichi deb hisoblaymiz. Bu tizim, bizning fikrimizcha, quyidagicha ko‘rinish kasb etishi mumkin: Mediasavodxonlik → Bilim → Malakalar → Madaniyat.

II BOB. MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA MEDIATA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH AMALIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

§ 2.1. Maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini mediata’lim vositasida shakllantirish omillari va tamoyillari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar etkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 2018 yil 22 oktabr 848-son qarorida “Axborot mahsulotining yoshga oid tasniflarini aniqlash mezonlari hamda uni ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomi” qabul qilindi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini mediata’lim texnologiyalar vositasida shakllantirish tarbiyachi hamda tarbiyalanuvchining hamkorlikdagi faoliyatini taqozo etadi. Chunki, namoyish etilayotan o‘quv materiallari bo‘yicha ular o‘rtasida o‘zaro munozara, o‘quv topshiriqlarini birgalikda bajarish amalga oshiriladi. Natijada bolalar o‘zlashtirgan bilimlarni, hayotiy vaziyatlarda qo‘llash malakasiga ega bo‘ladi.

Mediata’lim vositasida ta’lim-tarbiya berishda pedagog-tarbiyachilar quyida keltirilgan omillarni e’tiborga olishi talab etiladi:

- bolaning fiziologik va individual xususiyatini e’tiborga olish;
- ekran oldida vaqtdan to‘g‘ri foydalanish;
- bolalarga ortiqcha o‘quv topshiriqini yuklamaslik;
- har bir bola uchun qulay pedagogik muhit yaratish;
- bolalarni turli ma’lumotlarni o‘zlashtirish tajribasini anglash;
- o‘quv mashg‘ulotida intellektual va ijodiy qobiliyatni rivojlanishini ta’minlash;
- ta’limiy jarayonda bolaning mustaqil faoliyatiga ustuvorlik berish;
- ta’lim mazmunining insonparvarligi va demokratlashuvini ko‘zda tutish;
- ta’limning eng samarali shakl, metod va vositalardan foydalanish;

- tarbiyachining o‘zi ham ijodkorlik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lishi va h.k.

Ayni paytda, ushbu omillar ko‘lami kengayib borayotganligini eslatib o‘tish joiz. Ulardan biri tarbiyachilarning yuksak darajada kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lishidir.

Bolalarda intellektual va ijodiy qobiliyatlarini mediata’lim texnologiyalar vositasida shakllantirishda turli manbalar kitoblar, televizor, kompyuterdan foydalanish samara beradi. Har bir bolaga o‘z qobiliyatini namoyon etishi uchun qulay vaziyat yaratish ya’ni bilimlarni chuqurlashtirish, bilishga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish istagi hamda ularda qiziquvchanlik, faollik, tashabbuskorlik hissini shakllantirish muhim. Intellektual va ijodiy qobiliyatni shakllantirishning eng qulay usuli kuzatish, qurish, yasash, tajriba, taqqoslash va solishtirish bo‘lib, ularni axborot vositalari orqali o‘zlashtirish mumkin. Natijada, ularda atrofdagi voqelik haqidagi sabab va oqibatlarni anglash malakalari rivojlanadi. Bundan tashqari, bolalar ijodiy tafakkurini rivojlantirishda mediatexnologiyalar muhim rol o‘ynaydi. Mediata’limiy o‘yinlar–aniq o‘quv topshirig‘idan iborat bo‘lib, bolalarning tizimli harakatini talab etadigan pedagog-tarbiyachi tomonidan maxsus tashkil etiladigan jarayondir. Maktabgacha ta’lim jarayonida media o‘yinlar yosh davri va bolaning individual xususiyatini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Bunda tarbiyachi-pedagogdan informatsion kompetentlik ya’ni axborot muhitida zaruriy kerakli ma’lumotlarni izlash, yig‘ish saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish talab qilinadi.

5-6 yosh bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish amaliyotda quyida keltirilgan vazifalarni hal qilishni taqozo etadi:

1) Bolalarning aqliy faoliyati va ijodiy fikrlashini ta’minlovchi ish turini boyitish.
2) Tarbiyalanuvchilarda aynan maktabgacha davrda intellektual anglash va atrof muhitga qiziqish malakalarni shakllantirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish, ijtimoiy axloq va estetik tuyg‘ularni hosil qilishga ustuvorlik berish.

3) Maktabgacha ta’lim jarayonida tashkil etiladigan rivojlanish markazida bolalarning psixik rivojlanishida qiziqishning yuqorligini inobatga olgan holda o‘quv-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirishda media vositalarning rang-barangligi va ta’limiy yo‘nalganligini ta’minlash.
4) Media va didaktik o‘yinlarni tashkil etishda barcha faoliyat turi integratsiyasini nazarda tutish va keng joriy etish.
5) 5-6 yoshdagi tarbiyalanuvchilarning intellektual rivojlanishiga samarali ta’sir etadigan omil sifatida elementar matematika, fan va tabiatshunoslik, tajriba va tadqiqiy faoliyatni kengaytirish va bu jarayonga ota-onalarni maqsadli jalb qilish.
6) Kichkintoylar ijodiy tafakkurini rivojlantirish, mustaqil faoliyat, o‘z-o‘zini anglash malakalarini shakllantirishda og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy metodlarning uyg‘unlashuvchini kuchaytirish, tarbiyachi-pedagoglarning pedagogik-metodik faoliyatiga improvizatsiya talablarini tatbiq etish.
7) Bolalarda ilmiy dunyoqarash, ijodkorlik qobiliyatini tarkib toptirishda mazmun, metod, shakl va vositalarni optimallashtirish. Shuningdek, yuqorida ta’kidlangan vazifalar ijrosini ta’minlashda tarbiyachi o‘quv-tarbiyaviy faoliyatda umumdidaktik tamoyillarga tayanadi. Mazkur tamoyillar ta’lim mazmunini sifatli bo‘lishini kafolatlaydi. Media vositalar bolalarda atrof-muhit va voqea-hodisalar, tabiiy-ilmiy tushuncha hamda tasavvurlar ko‘lamini kengaytiradi. Mantiqiy fikrlash tizimlashadi, tahlil, taqqoslash va umumlashtirish, xulosa chiqarish, sabab-oqibat munosabatlarini anglash, muhokama va tashxislash ko‘nikmalari asosida intellektual va ijodiy qobiliyatlar rivojlanishiga erishiladi.

Bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini mediata’lim texnologiyalar asosida rivojlantirishda pedagog-tarbiyachilar quyidagi tamoyillarga amal qilishi lozim:

1. Uzluksizlik, tizimlilik.
2. Maqsadlilik va manzillik.
3. Bolalarning mavjud bilimlariga tayanish.

4. Tizimlilik, guruh tajribasiga asoslanish.

5. Onglilik va faollik.

6. Media topshiriqlarni oddiydan murakkabga tamoyili asosida tayyorlash.


7. Ko‘pvariantlilik.

8. Teskari aloqa o‘rnatish.


Bolalarda intellektual va ijodiy kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida media- interfaol metodlar muhim sanaladi. Bunda ta’lim oluvchining bilish faoliyatini faollashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib, o‘quv jarayoni va mashg‘ulotlarni o‘zaro hamkorlik asosida tashkil etiladi. Bunda o‘zaro harakat ta’lim oluvchilarning faollashuvi, guruh tajribasiga asoslanish, teskari aloqa o‘rnatish kabi tamoyillarga tayanadi.

O‘rganuvchi tadqiqot asosida 5-6 yoshli bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan media mahsulotlarni tanlab oldik (2.1.1-rasm)

Mavjud metodik manbalar va ish tajribalarini o‘rganish asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalardagi intellektual va ijodiy kreativlik qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan pedagog-tarbiyachilar uchun interfaol ish shakllarini tavsiya qildik (2.1.2-rasm)



2.1.1-rasm. Media mahsulotlar



2.1.2-rasm. Interfaol ish shakllari.

Bolalarning ongida va dunyoqarashida sog‘lom g‘oyalar va bilim olishga ishtiyoqning ortib borishini tarkib toptirish hamda milliy odob me’yorlari rivojlantirishda tarbiyachi-pedagoglarga ulkan vazifa yuklatiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini mediata’lim texnologiyalar asosida rivojlantirishda qo‘yiladigan pedagogik talablarni nazariy va amaliy omillari bo‘yicha olib borilgan o‘rganishlarimiz tahlili va yakunlariga asoslangan holda quyidagi fikrlar yuzaga keldi. Jumladan, interfaol mediata’lim metodlari va texnologiyalari maktabgacha 5-6 yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Interfaol mediata’lim texnologiyalari asosida o‘qitish jarayoni o‘zining muayyan mazmuni, vositalari, pedagogik shart sharoitlari, pedagogik talablari, pedagogik mezonlari va pedagogik xususiyatlari hamda usullariga ega.[67,46-b]

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi pedagogik talablar sirasiga quyidagilar kiradi:

- ✓ kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- ✓ kreativ faollikni shakllantirish;
- ✓ o‘quv jarayonini izlanuvchilik hamda muammoli izlanuvchanlik, qiziquvchanlik, tadqiqotchilik yo‘nalishlarini kuchaytirish;
- ✓ bolalarda muammolarni ijodiy yechish va yaratuvchilik faoliyatini tashkil etish;
- ✓ layoqat, imkoniyat, bilim, ko‘nikma va malaka, kompetenlik, iqtidor, istedod kabi sifatlarini rivojlantirish jarayonini interfaol mediata’lim metodlar va texnologiyalar asosida tashkil etish;
- ✓ mustaqil ijodiy faoliyat ko‘rsatish va bilim olish;
- ✓ o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini bilish orqali kreativ fikrlashga o‘rgatish;
- ✓ intellektual va kreativ layoqatlarini namoyon qilishlari uchun qulay ijodiy hamkorlik muhitini yaratish.
- ✓ ideal g‘oyalarni yaratilishiga sabab bo‘lishini ifodalaydi.[65, 59-b]


Mediata’limga daxldor adabiyotlarni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini mediata’lim texnologiyalar asosida rivojlantirish ularning tafakkuridagi “sintetik”, “g‘oyaviy”, “pragmatik”, “analitik” va “realistik” uslublarni shakllantiradi. Bolalar tafakkuridagi mazkur uslublar ularda yangilikka intilish, yangilik yaratishga moyillik, orginal fikrlashga extiyoj, fikr va g‘oyalarni o‘zaro bog‘lashga qiziqish, qarama-qarshi g‘oyalarni birlashtirishga moyillik, muammolarni ikir-chikirigacha tahlil qilishga tayyorgalik, mustaqil fiklashga intilish, qaror qabul qilishdan oldin muammo yuzasidan obyektiv dalillar, axborotlar to‘plashga intilish kabi bir qancha ijobiy sifatlarni o‘sishiga olib keldi.

Yuqoridagi tahlillar asosida 5-6 yosh bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini mediata’lim texnologiyalar asosida rivojlantirishning pedagogik talablari asosida ijodiy tafakkurni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari ishlab chiqildi (2.1.3-rasm).

Tadqiqot davrida bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik mezonlari tuzilmasini belgilovchi uchta osttuzilmalar mavjudligi aniqlandi: mashg‘ulot jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik-psixologik

topshiriqlar; intellektual va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning motivatsion, xususiyatli, uslubiy jabhalari; intellektual va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish prinsiplari va shart-sharoitlari. Ushbu osttuzilmalar tarkibiy elementlarining mashg‘ulot jarayonida ishtirok etish xususiyati va darajalariga ko‘ra bolalar (ijodiy) tafakkurini rivojlantirish holatini baholash mumkin.

Ijodiy tafakkur esa o‘z-o‘zidan bolalarning intellekt va ijodiy qobiliyati darajalarini namoyon etadi, shuningdek, ijodiy tafakkurning rivojlanishini xarakterlovchi qator xususiyatlar kuzatildi:



2.1.3-rasm. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari

- aqliy topshiriqlar ustida ishlashda yuqori darajali motivatsiyaning mavjudligi;
- nazariy, ilmiy, amaliy, sodda, murakkab, standart va nostandart topshiriqlarni berib borish, yangi mahsuldor uslubni qo‘llashga xayrixohlik;
- oddiy mantiqiy xulosalarga tayanmagan holda ichi sezgilarga tayanish;
- muammoni qo‘ya olish va uning yechimlariga mustaqil yondashish; ijodiy tafakkurning muhim tomoni yangi natijalar olish va yangi mahsulot berish.


Mashg‘ulotlar jarayonida ijodiy tafakkurning namoyon bo‘lishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga subyektiv, shaxslilik va vaziyat, shart-sharoitga bog‘liq pedagogik, psixologik omillarni kiritish mumkin. Vaziyatli omillar ta’siriga: ko‘rgan voqea hodisaga ko‘r-ko‘rona ishonish, xayajon va xavotirlanish xavfi, motivatsiyaning yuqori va quyi darajada ekanligi; shaxslilik omillariga: o‘ziga ishonmaslik (o‘zini o‘zi past baholash), haddan ortiq o‘ziga ishonish, tushkun kayfiyat va salbiy emotsiyalarning ustuvorligi, tavakkalchilikning etishmaganligi, muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasidan ustun kelishi, bezovtalanish, shoshqaloqlik va boshqalar sabab bo‘ladi.

Keltirib o‘tilgan osttuzilmalar va ularning tarkibiy elementlariga ko‘ra, bolalar tafakkurini mediata’lim asosida rivojlantirishga e’tibor qaratish, shubhasiz, muhim pedagogik-psixologik talablardan hisoblanadi.

Mazkur xususiyatlar bolaning intellektual va ijodiy qobiliyatini har tomonlama o‘stirishning tarbiyaviy xarakterini ifodalaydi. Unga ko‘ra, bolaning intellektual va ijodiy qobiliyatini har tomonlama o‘stirishning pedagogik xususiyatlari bilim berish, yo‘naltirish, tarbiyalash, shakllantirish va tayyorlash xarakterida bo‘lishi lozim. Tadqiqot doirasida MTTlarda bolaning intellektual va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlarini aniqlashtirdik (2.1.4-rasm).

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar tafakkuri tabiati xilma-xil va murakkab tuzilmalaridan iborat bilish jarayoni bo‘lib, uni yoritishda uslublar va tiplar muhim ahamiyatga ega ekanligi namoyon bo‘ldi. Ular axborotlarni o‘zlashtirishda

predmetlar ustida ishlash orqali mulohazalovchi; dunyoni bilishda simvollar, aniq formula va matematik hisob-kitoblarga tayanuvchi; voqea-hodisalarni umumlashtirish tamoyillariga ko‘ra o‘rganuvchi; masalalar yechimini obrazlarga tayanib baholovchi va ijodiy yondashuv asosiga mutanosib ekan.




2.1.4-rasm. MTTlarda bolaning intellektual va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari

Mashg‘ulotlar jarayonida bolalar yangilik yaratishga, original ishlarni amalga oshirishga, g‘oyalarni o‘zaro bog‘lashga hamda monand kelmagan, qarama-qarshi g‘oya va ma’lumotlarni birlashtirishga moyil bo‘lishi; o‘zining shaxsiy tajribasiga tayanib qarorlar qabul qiladigan, muammolarga atroflicha va tizimli qarashga layoqatli, o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan yoki eshitgan voqeliklarni adekvat baholashga qobiliyatli tafakkur subyekti bo‘lishi kuzatildi.

O‘quv-tarbiyaviy faoliyat davrida ijodiy tafakkurning rivojlanishi aniq tartiblangan, o‘zaro uzviylik va doimiy ravishda ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega mediata’lim vositalari hamda pedagogik shart-sharoitlar bilan ta’minlanishi bolalarning intellekti va ijodiy qobiliyatini o‘sishining asosiy omili hisoblanadi. Ijodiy tafakkurning rivojlanishida topshiriqlarning oddiydan murakkabga qarab

yo‘naltirilishi, vaziyatlarning tezkor, aniq, puxta va original yechimlar topishni belgilovchi pedagogik va psixologik mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Bolalarga mediata’lim asosida muammoli va ijodiy fikrlashga undovchi topshiriqlar berib borish ularda faollikni vujudga keltiradi, irodaviy zo‘r berish bilan qurollanishga shart-sharoit yaratadi. Bu esa ularda o‘quv faoliyati uchun ijobiy, ijodiy va faollik bilan izlanish munosabatini ta’minlaydi. Shunday ekan, bolaning intellektual qobiliyatini har tomonlama o‘stirish jamiyat taraqqiyotida yosh avlodning har tomonlama kamol topishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.



2.1.5-rasm. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellekti va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni pedagogik-psixologik tuzilmasi

Mazkur tuzilmaning maqsadi va vazifalarida bolaning psixologik - pedagogik xususiyatlarini tashxislash, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatda kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish, ijodiy fikrlash motivatsiyasini rivojlantirishning uzluksizligi, bilish kompetensiyasini shakllantirish, individual yondashuv,

tarbiyachi-pedagogning novatorligi, soha kompetensiyalari va ularning intellekt va ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga ijobiy ta'siri nazarda tutilgan. Uning natijaviyligi esa mazkur sohadagi ishlarni uzluksizlik, tizimlilik, maqsadlilik va manzillik kabi tamoyillariga xizmat qiladi(2.1.5-rasm).

Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy fikrlash jarayonini har bir faoliyat yo'nalishi, bosqichi va tarbiyalanuvchining individual xususiyatlarini inobatga olish operativ va tejamkorlik, operativ murakkablik, soddallik va qulaylik, individual va guruhiy ishlashga xizmat qiluvchi vazifalar xarakteriga ega bo'lishi lozimligini taqozo etdi. Ijodiy fikrlashga o'rgatuvchi topshiriqlar mazmuni bayoni, uning ishlash texnologiyasi, topshiriq natijalari muhokamasi va uning shakllanganligini baholovchi diagnostika tizimiga egaligi o'rganilayotgan muammoni haqiqiy tabiatini yoritishda muhim shart sifatida xizmat qildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkurini rivojlantirishda integratsion mashg'ulot, loyiha-tadiqotchilik faoliyati kabilar o'ziga xos o'ringa ega. Ular orasidan loyiha-tadqiqotchilik faoliyatiga asoslanib o'quv-mashg'ulotlarni tashkil etish bolalar tafakkuri tezligi, mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, kreativligi, egiluvchanligi, originalligini namoyon bo'lishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

§ 2.2 Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni intelektual ijodiy rivojlantirishda mediata'lim texnologiyalari imkoniyatlari

Hozirgi zamon globallashuvi davrida innovatsion texnologiyalarni ta'lim va tarbiya jarayoniga tatbiq etib borish zaruriyat hisoblanadi. Ana shunday texnologiyalardan biri mediata'lim texnologiyasidir.

Mamlakatimizda ham barcha sohalarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim jarayoniga zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarni joriy etish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6-iyundagi "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari qabul qilingan bulsa, ayni vaqtda Prezidentimiz tomonidan 2017 yil 30 iyundagi PQ-5099 sonli "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini

rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori shundan dalolatdir [5].

Shu jihatdan MTTlarda bolalar ma’naviy tarbiyasini shakllantirishda eng ta’sirchan, eng qulay va eng maqbul vosita bu – mediata’lim texnologiyalaridir. Bu texnologiyalar mamlakatimiz tarqqiyoti uchun muhim bo‘lib, uning asoslari hozirga qadar etarli darajada tadbiq qilinganicha yo‘q. Mediata’lim XX asrning 70-yillaridan boshlab kompyuter va internet vositasi kashf etilishi natijasida Gepmaniya, Buyuk Britaniya, AQSH, Yaponiya, Fransiya va keyinchalik Rossiyada yangi axborot-kommunikatsion texnologiyalar shakli sifatida paydo bo‘ldi [120,139-b**].** Bu texnologiya – shaxs ongini ta’lim jarayonida ommaviy kommunikatsiya va axborot vositalari hamda ularda e’lon qilingan matbuot materiallari asosida rivojlantirish jarayonidir [119, 362-b]. Bir so‘z bilan aytganda, media – bu “axborot va uning vositasi”, ta’lim esa o‘qitish demakdir. Shu ma’noda mediata’lim – ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinayotgan materiallarga tayangan holda shaxs ongini maqsadli shakllantirish texnologiyasidir [73,122-b].

1973 yilda YUNESKOning mediata’limga bergan ta’rifida media, ya’ni televideniye, radio, kinometrografiya, ommaviy nashrlar va elektron axborot tizimlari orqali shaxsga ta’lim-tarbiya berishning asosini tashkil qilishi ta’kidlangan [155]. Bugungi kunda bu ta’rifga kompyuter vositasini qo‘shimcha qilish o‘rinlidir. Mediata’lim pedagogik qonuniyatlarga tayansagina ta’lim va tarbiya texnologiyasi hisoblanadi. Aks holda, bu texnologiya faqat da’vat qiluvchi vositaga aylanib qoladi.

Mediata’lim bo‘yicha tadqiqot olib borgan nufuzli pedagog olimlardan yana biri Ю.М.Усов hisoblanadi. U ta’lim-tarbiya jarayonida mediata’limni asta-sekin tatbiq etiluvchi birlamchi vosita deb biladi [120, 90-b]. Bunda axborot vositalari, materiallari va ma’lumotlari ta’lim berish uchun asos bo‘ladi, lekin tayanch omil bo‘la olmaydi. Demak, mediata’lim pedagogik qonuniyatlar bilangina ta’lim va tarbiya vositasiga aylanadi.

MTTlari pedagog kadrlarining kreativ kompetentligini uzluksiz rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘qitish dasturlari va texnologiyalarini takomillashtirib borish, shuningdek bolalarning kreativlik qobiliyatlarini

rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy axborot-metodik ta’minotni yaratish jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Biz tadqiqot doirasida maktabgacha ta’lim tizimida bolalardagi intellektual va ijodiy kreativlik qobiliyatlarini rivojlanganligini o‘rganishning prognostik va kvalimetrik metodlari, tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi va mazmuni, statistik tahlili va samaradorlik darajasini ham aniqladik va ular keyingi paragraflarda keltiriladi. Amaliyotni o‘rganishimiz tarbiyachi-pedagoglarni media kompetentligini oshirishda quyidagi ish shakllaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqladi. Jumladan,

- ma’lumotlarni tahlil etish, tezkor qarorlar qabul qilish, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi treninglarni tashkil etish;
- tasavvurlar va obrazli qarashlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ijodiy mashqlar, topshiriqlarni bajarish;
- multimedia yaratish;
- ijodiy ishlarni tashkil etish;
- ijodiy loyihalar tayyorlash;
- elektron portfolio shakllantirish;
- media vositalar yaratish;
- Axborot texnologiyalarini o‘rgatishga yo‘naltirilgan o‘quv seminarlari tashkil etish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g‘oyalar, konsepsiyalar hamda ilg‘or pedagogik tajribalar va mediata’lim asosida o‘qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli-faoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

MTTlarda bolalarni intellektual kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning reproduktiv, ijodiy-izlanish samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ijodiy yo‘naltirilgan axborot dasturlarini ishlab chiqish hamda bolalarning kreativ ko‘nikma va malakalarini rivojlanishining o‘zgarishini monitoring qilib borish lozim.

MTTlarda “Atrofdagi olam bilan tanishish” “Nutqni rivojlantirish”, “Tabiat bilan tanishish”, “Savodxonlikka o‘rgatish”, “Elementar matematika”, “Mantiqiy fikrlash”, “Konstruksiyalar tuzish va qo‘l mehnati” kabi mashg‘ulotlar tarbiyachi pedagoglar tomonidan olib boriladi. Ushbu mashg‘ulotlar bolaning har tomonlama intellekual va ijodiy qobiliyatini ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarga dastlabki bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish bilan birgalikda ularning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini media mahsulotlar orqali o‘stirish, ularda mustaqil dunyoqarash, erkin fikr yuritishni shakllantirishdan iborat. Bu esa bolalarining atrof-olamga qarashlari o‘zgarib borib, kamol topishiga xizmat qiladi. Bolaning intellektual va ijodiy qobiliyatlarining o‘sishi ularni mustaqil dunyoqarashga, sog‘lom fikrlashga o‘rgatadi.

Bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishning ko‘plab usullari mavjud — bu tasviriy san’at, rassomlik, qurilish yoki o‘ylab topilgan (xayoliy/tasavvurdagi) o‘yinlar. Bola nimani yaratsa ham, yakuniy mahsulotga emas, balki jarayonga e’tibor qaratish lozim. Buni amalga oshirishning usullaridan biri — bolalar ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanayotganlarida ular bilan suhbatlashish, savol berish va hikoyalarni aytib berishdir. Bugungi kunda yuqorida qayd etilgan usullarni singdirishning muhim vositasi mediatexnologiyalar hisoblanadi. Chunki, bolalarda mediamahsulotlarga bo’lgan qiziqish yuqori. Bolalarning ijodkorligini rivojlantirishda qaratilgan usullar mediavositalar orqali qanchalik ko’p tadbiq etilsa natija samarali bo’ladi. Chunki, bola ko’rgazmalailik tamoyili asosida 80% ma’lumotni esda saqlab qoladi.

5-6 yosh bolalar — kichik kashfiyotchilardir, ular doimo qiziquvchan bo’lib, yangi narsalarni o‘rganishga intiladi. Shuning uchun unga mos keladigan va uning jismoniy, aqliy, ijodiy, hissiy va estetik jihatdan faol rivojlanishiga yordam beradigan mashg‘ulotni tashkil etish talab etiladi. Biroq, aksariyat tarbiyachi-pedagoglar yetarli darajada yetarli bilim va ko’nikmaga ega emaslar. Shuning uchun, biz tomonimizdan tavsiya etilgan mediabolajon elektron platforma va boshqa bolalar uchun mo’ljallangan ta’limiy va tarbiyaviy mobil ilovalar bolalarni kompleks rivojlanishiga yordam beradi.

MTTlarda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda san’at va musiqaning birmuncha samaradorligi yuqori hisoblanadi. Jumladan bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish bolalar musiqa asarlari va asboblari bilan tanishishdan boshlanadi.

MTTlari tarbiyachilar bilan ushbu tasavvurlarni qaysi tarkibga olib keladiganini tahlil qilish foydali bo‘lsa, birgalikda tadqiq qilish tavsiya etiladi. Ota-onalar bolaning musiqiy qobiliyatini rivojlantirishda faol ishtirok etishi kerak. Agar ular musiqa olamida ishtirok etmasalar va musiqachini tarbiyalamoqchi bo‘lsalar ham, bu yo‘nalishda bolaga murojaat qilish kerak. Masalan, oddiy o‘yinlardan boshlashingiz kerak, masalan, qo‘shiqlarni chalish bilan qo‘shiqni takrorlash, bolalar qo‘shiqlarini kuylash. Bundan tashqari, musiqa qulog‘ini rivojlantirish uchun maxsus metodlardan foydalangan holda vazifalarni murakkablashtirish mumkin.

Shuningdek MTTlarda bolalarning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini oshirishda nutq o‘stirish va badiiy adabiyot bilan tanishtirish usullari ijobiy samara berib kelmoqda. Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, u qiziqqan narsasini imkon qadar chuqurroq bilishga intiladi va binobarin, uzoq vaqt davomida u bilan shug‘ullanishdan zerikmaydi. Bu, o‘z navbatida, bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o‘stirishga hamda mustahkamlashga yordam beradi. Shu ma’noda bolalarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirishda avval ularni erkin tafakkur obyekti bilan qiziqtirib olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bog‘cha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug‘ilishi ular tafakkurining faollashayotganidan darak beradi. Bola o‘z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik susaya boshlaydi. Odatda har qanday tafakkur jarayoni biror narsadan taajjublanish, hayron qolish va natijada turli savollarning tug‘ilishi tufayli paydo buladi. Passiv va tortinchoq bolalar esa hech savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg‘ulotlar va sayohatlarda kattalarning o‘zlari savol berishlari, shu bilan ularni faollashtirishlari lozim. Har qanday tafakkur odatda biror narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi. Shuning uchun ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilish ruhshunoslik

ilmida tafakkur jarayoni deb ataladi. Sayohatlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar tabiatga qilingan sayohatlarda turli narsalarni bir-biri bilan taqqoslaydilar va analiz hamda sintez qilib ko‘rishga intiladilar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va ularni mediata’lim texnologiyalari asosida tashkillashtirish zaruriyati ta’lim jarayonida so‘nggi texnologiyalaridan biri – bu mediatexnologiyalardan, ya’ni elektron qo‘llanmalar, elektron platformalar, mobil ilovalar, animatsion ta’limiy video o‘yinlar, kompakt disklar, audio-video kasetalar kabilardan foydalanishdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib boriladigan mashg‘ulotlar yangi materiallarni o‘rganish , bilimlarni mustahkamlash , umumlashtiruvchi takrorlash, bilimlarning qanchalik o‘zlashtirganligini tekshirish kabilarga bo‘linadi. Bunda yangi materiallarni o‘rganishda multimediali kompyuter asosida olib borish texnologiyasi quyidagicha:

- ✓ Tarbiyachi bolalarni televizor qarshisiga joylashtiradi.
- ✓ Televizorga joylashtirgan o‘quv materiallarini ekraniga chiqaradi.
- ✓ Bolalarning diqqati kompyuter ekranida chiqqan materiallariga qaratiladi.
- ✓ Bolalarning qanday topshiriqlarni bajarishi uchun ular bilan savol-javob o‘tkaziladi.
- ✓ Bolalar tarbiyachi tomonidan berilgan topshiriqni kompyuterda mustaqil bajarishga kirishadi.
- ✓ Bolalarning televizor orqali ko‘rgan materiallari savollar asosida mustahkamlanadi, buni yana bir bor televizorda ko‘rib mustahkamlaydi.
- ✓ Bolalarning televizor orqali o‘zlashtirgan bilimlari tarbiyachi tomonidan baholanib, rag‘batlantirib boriladi.

Mediata’limda ma’lumotlar va materiallar bilan ishlay olish malakasi muhim ahamiyatga ega. Chunki bu masala maktabgacha yoshdagi bolalarning zamonaviy

axborot texnologiyalari bilan ishlash mahoratini oshirishga xizmat qiladi. Mediata'lim texnologiyalari zamonaviy xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Bular:

- kompyuter imkoniyatlaridan keng foydalanish;
- internet vositasida jahon ta'lim tizimi yangiliklaridan xabardor bo'lish va ulardan foydalanish;
- milliy pedagogik tajribani ommalashtirish.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda mediata'lim texnologiyalaridan foydalanish bolalar dunyoqarashini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Chunki, tarbiyalanuvchilarda:

- mediata'lim vositalari orqali ma'naviy tarbiyaga oid e'lon qilinayotgan materiallar mazmunini tahlil vositasida qabul qilish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy tarbiyasini shakllantirishga doir mediamateriallarning eng to'g'ri va maqbullarini anglay olish;
- mediavositalarda e'lon qilinayotgan materiallarning mediata'lim talab darajasida yoshlar dunyoqarashini shakllantirishga erishish kabilar kiradi.

Internet, teleradio va matbuot nashrlari orqali 5-6 yoshli bolalar ongi, dunyoqarashi, axloqiga turlicha ta'sir ko'rsatuvchi axborot va boshqa ma'lumotlar e'lon qilinmoqda. Mazkur masala hozirgi kunning muhim pedagogik muammolaridan biridir. Shu sababli bolalarda mediata'lim texnologiyalari vositasida tarbiyalanuvchilarning mediasavodhonligini shakllantirish uchun kompyuter orqali mashg'ulot olib borishni chuqur bilishi kerak. Bunda quyidagilarga e'tiborni qaratish kerak bo'ladi:

- axborot va ma'lumotlarni aniq tahlil asosida tanlash;
- axborot va ma'lumotlarning ishonchli bo'lishi;
- axborot va ma'lumotlar maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy va ruhiy imkoniyatlariga mos kelishi;
- axborot va ma'lumotlarning yangilanib borishi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalardagi intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim pedagogik sharti, ta'lim faoliyatlari jarayonida erkin ijodiy


muhitning yaratilishi, tarbiyachilar va bolalarning birgalikdagi munosabatlari va o‘zaro hamkorlikdagi harakatiga asoslangan o‘qitish jarayonini yo‘lga qo‘yishdan iboratligini ilmiy jihatdan asosladi.

Bola ta’lim-tarbiya jarayonida o‘z bilim va imkoniyatlari darajasini bilib yurishi, axborotlarni qabul qilishi, saralashi, qayta ishlashi, ulardan keladigan ijobiy natija va oqibatlarni diqqat markazida tahlil qila olishi, boshqalarning fikr-g‘oyalarini idrok qilishi, o‘z barqaror nuqtai nazariga ega bo‘lishi, o‘z g‘oyalarini boshqa g‘oyalarga taqqoslashni o‘rganishga majburligi hozirgi elektron asr - XXI asr talabiga aylandi.

Maktabgacha ta’lim tizimida mediata’lim texnologiyalarini targ‘ib etishda “Mediamahsulotdan ogoh bo‘ling” tamoyil asosida tarbiyachi-pedagoglarga har hil media mahsulotlardan to‘g‘ri foydalanishni targ‘ib qilib borish lozim. Shu tariqa maktabgacha yoshdagi bolalarning media mahsulotlardan ogohligini oshirib borish fazilatini shakllantirishda uning quyidagi muayyan ijtimoiy tarbiyaviy vazifalarining belgilab olinishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (2.2.1 jadval).

2.2.1- jadval

Media mahsulotlardan ogoxlik funksiyalari



Yuqoridagilarni hisobga olgan holda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mediata’lim texnologiyalarini tashkil etish muhim vositalardan biridir. Shu jihatdan ham bugungi kunda shaxs mediasavodxonligiga shakllantirish uchun mediata’lim

texnologiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Chunki unda quyidagi yo‘nalishlar asosiy o‘rinni egallaydi:

- ✓ bolalarga axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida ma’naviy tarbiya va uning asosiy tamoyillari haqida chuqur bilim berish;
- ✓ bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini to‘g‘ri shakllantirishda ommaviy axborot vositalari, kommunikatsiya va matbuot materiallari bilan ishlash ko‘nikmasini hosil qilish;
- ✓ bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning mediasavodxonligini shakllantirishda zamonaviy texnologiyalar bilan samarali ishlash.

Zero, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini to‘g‘ri shakllantirishda mediasavodxonlikka oid chuqur bilim, yuksak ko‘nikma va kompetensiyalarini mediata’lim texnologiyalari orqali shakllantirishni quyidagicha ifodalash mumkin (2.2.2-jadval).

(2.2.2-jadval)

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachilarning bolalarga mediata’lim texnologiyalari bo‘yicha bilim berishiga qo‘yiladigan minimal talablar

1	Bilim	-mediata’lim va uning asosiy tamoyillarini chuqur o‘zlashtirish; -mediata’lim haqida aniq tushunchaga ega bo‘lish; -global internet tarmog‘i orqali kirib kelayotgan g‘oyaviy tahdidlardan izchil va muntazam xabardor bo‘lish. -Uzatilayotgan axborotlar turidan qat’iy nazar tanqidiy va ijodiy fikrlay olish - Media taqdim etishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlarni saralash va ulardan foydalanish
2	Ko‘nikma	-telefon, kompyuter va turli texnik vositalar bilan ishlay olish; -mediata’lim texnologiyasi asosida materiallarni tahlil qila olish; -ma’lumotlarni izlash, topish va amaliyotda qo‘llash.

3	Odatlantirish	-eng qulay usullar bilan mediata'lim texnologiyalari mazmun-mohiyatini tushuntirish; - mediata'lim texnologiyalari materiallarini yangilab borishni o'rganish; -maqsadli harakat qilish.

Ko'plab tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bolalarning shaxsiy sifatlari, ya'ni uning umumiy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini namoyon qiladigan, shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlarini rivojlantirishga qaratiladi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun mediatexnologiyalar asosida tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlari ulardan:

- ✓ ijtimoiy jihatdan ijtimoiy norma va talablarga moslashish (sotsializatsiya) yoki vaziyatni tashkil etish jarayonida faol ijodiy faoliyat ko'rsatish;
- ✓ o'z faoliyatini mustaqil tashkil etishga asoslangan ijodkorlik, ta'lim olish, o'rganish, o'z-o'zini tarbiyalash pedagogik faoliyatning maqsadi sifatida talab etiladi.

Ta'limiy faoliyatlarda tarbiyachining ta'lim-tarbiyaviy faoliyati bosqichma-bosqich, o'zaro teng imkoniyatlarga ega bo'lgan hamkorlik asosida tashkil etiladi.

Shunday qilib, Maktabgacha ta'lim tizimida mediata'lim texnologiyalarini targ'ib etish, bolalarning kreativ, mazmundor va mantiqiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari uchun mediatexnologiya metodlarning intuitiv, mantiqiy, gnoseologik va praktik tomonlari bir butun deb qaraladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy, kreativ, mazmundor va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun yo'naltirilgan topshiriqlardan foydalanish ko'p hollarda mediatexnologiyaning "loyihalash", "tadqiqot", "dasturlashtirish" va "muammoli vaziyat" kabi shakllaridan foydalanishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta'lim tizimida mediata'lim texnologiyalariga oid bilimlarini kengaytirishda didaktik metodlarning metodologik asoslarini rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir. O'qitish maqsadlariga erishish yo'lidagi faoliyat usullarining real boyligini ko'rsatish, tarbiyachilar ixtiyoridagi mediatexnologiyalarga

asoslangan metodlarining boy xazinasini ommalashtirish va ulardan maqsadli va manzilli tarzda foydalanish bu boradagi sa'y-harakatlarni yuqori pog'onalarga ko'tarilishiga zamin hozirlaydi.

Tadqiqotimiz davomida masalaga daxldor ko'plab adabiyotlar tahliliga asoslanib biz maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlari ularning kreativ, mazmundor, mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishda quyidagicha mediata'lim metodlariga asoslangan ish shakllaridan foydalanishni muhim ahamiyatga ega deb hisobladik:

- ✓ bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni hosil bo'lish hodisasi va uni namoyon bo'lish jarayonlarni tahlil etish, muammoli o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayotiy tasavvurlarni va obrazli, ijodiy, kreativ va mazmundor qarashlarni shakllantirishga yo'naltirilgan sodda anologik masalalaridan foydalanish;
- ✓ sodda va murakkab ko'rgazamali, xarakatli va obrazli keyslar bilan ishlash;
- ✓ individual, guruhiy ish shakllari va debatlarni tashkil etish;
- ✓ o'quv mashhulotida o'rganilayotgan masalani didaktiklashtirish xususiyatiga ega bo'lgan o'quv texnologik xaritasini tuzish;
- ✓ ijodiy to'garaklar tashkil etish kabilardan iboratdir.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib 5-6 yoshdagi bolalarni intellekti, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni media olamida savodxon, tarbiyali bo'lishiga hizmat qiladigan **"Mediasavodxonlik**" qo'shimcha ta'limiy faoliyat loyihasini ishlab chiqdik (2.2.3-jadval).

2.2.3-jadval

Faoliyat loyihasi

№	Faoliyatning maqsadi	Izox
1	Ehtiyojni aniqlash	Nimani biladi, nimani bilishni xohlaydi, aniqlash

2	Motivatsiyalash	Guruhlarni tashkil etish. Taqsimot. Didaktik o‘yin. Relaksion o‘yin, Ijtimoiy-psixologik treninglar
3	Yangi bilimlarni o‘rganish	Mediatexnologik taqdimot, ma’ruza, aqliy hujum, sodda va murakkab anologiyalar va keys mashg‘ulotlar
4	Tarbiyachining fikridan o‘ziga kerakli xulosalar chiqarish.	Tushunish, tinglash, qiziqish, o‘zlashtirish, qobiliyat, munosabat
5	O‘quv mashg‘ulotida ishtirok etgan bolalarning yangi bilim bo‘yicha o‘zlashtirish darajasini aniqlash.	Diagnostika, reproduktiv va nostandart test topshiriqlarni bajarish.
6	Baholash	O‘quv mashg‘ulotining samadorligi. Mazkur loyixa natijasida bolada?

Mediata’lim texnologiyalarga asoslangan interaktiv, didaktik metodlarning afzalligi, samaradorligi shundaki, o‘quv mashg‘ulotlarida bolalarda ijodiy, kreativ, mantiqiy fikrlar, g‘oyalar, qarashlar va berilgan bahslarga o‘z fikrlarini bildiribgina qolmay, balki ularning ulkan ma’lumot salohiyatlarini faollashtirish va o‘quv mashg‘ulotidagi ijobiy vazifaga taalluqli musobaqada o‘z kuchidan to‘la foydalanishni taqozo etadi: guruhning intellektual kuchi bir bolaning intellektual kuchi miqdoridan doimo yuqori bo‘ladi. Mediata’lim texnologiyalari bolalar guruhlarida sheriklik atmosferasini yaratish uchun aniq imkoniyatlarga ega. U yaxshi mashg‘ulot tashkillashtirishning va o‘tishning tayyor retsepti bo‘lmasdan, mazkur o‘qitish metodiga asoslangan ta’lim texnologiyasi tarbiyachi va tarbiyalanuvchining ijodiy muallifdoshi tartibida ishlashga o‘rgatadi. Natijada bola hayotning, ishlab chiqarishning har qanday o‘zgarishlariga ko‘ra o‘zining standart bo‘lmagan ijodiy va kreativ xulosa va qarorlarini ishlab chiqish, qabul qilish malakasini egallaydi. Amaliyotda mediata’limga asoslangan metodlarni qo‘llash integrativlik tamoyili asosida bolalarni intellektual-bilish malakasi, elementar

matematik tasavvurlar, tanqidiy-bilishning refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni didaktik topshiriqlarning hayotiyligini ta’minlashga xizmat qildi.

Tadqiqotimizda maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning didaktik ta’minoti “Windows”, “Android” va “IOS” operatsion tizimlarida ishlaydigan “MediaBolajon” nomli elektron platformasi o‘quv-tarbiyaviy jarayonga joriy etildi. Tavsiya etilayotgan platformada maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi hamda mediasavodhonligini oshiruvruvchi audio video maxsulotlar, didaktik topshiriqlar, slaydlar berilgan. Bundan tashqari platforma pedagog tarbiyachilar uchun ish xujjatlari, elektron adabiyotlar, faoliyat ishlanmalari, maktabgacha ta’lim tizimida yangiliklar bilan boyitib boriladi.

Tadqiqot davrida “Mediasavodxonlik” o‘quv-tarbiyaviy faoliyat ham tashkil etildi.Unda axborot texnologiyasi haqida umumiy tushunchalar berildi; rivojlanish sohalari bo‘yicha tarbiyaviy ko‘rsatuvlar namoyish etildi; mustaqil faoliyat uchun topshiriqlar berildi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari uchun maxsus reja va dastur tuzdik. Taklif etilayotgan dastur qo‘shimcha ta’lim faoliyati bo‘lib tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning bo‘sh vaqtlarini hisobga olib bir oyda bir marotaba tashkil etildi. Bunda media bo‘yicha bolalarning bilim ko‘nikma va malakalari o‘rganildi (2.2.4-jadval).

Mashg‘ulot jarayonida video audio materiallar tarqatma materiallar vositasida tarbiyalanuvchilarning mediasavodxonligi, mediavositalardan foydalanishiga alohida e’tibor qaratildi.

2.2.4-jadval.

“Mediasavodxonlik” faoliyatida bolalarning mediavositalar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini aniqlash

№	Umumiy tushunchalar	Savol va topshiriqlar	Olingan javoblar belgisi
1	“Televideniya” xaqida tushunchalar	1.Tushuncha berish. 2.Uyda televizor ko‘rasizlarmi? 3.Qaysi kanallarni ko‘rishni yoqtirasizlar?	

		4.Bir kunda qancha payt tv ko‘rib o‘tirasiz? 5.Tvda berilayotgan Quvnoq alifbo, ingliz tili,topgan topaloq...ko‘rsatuvlarni ko‘rasizmi? Kabi...	
2.	“Multfilmlar ”	1.Tushuncha berish. 2.Sizlar uchun eng qiziq multfilmlar sanab beramiz? 3.Milliy multfilmlar ham ko‘rasizlarmi? 4.Aqliy va ijodiy rivojlantiriuvchi multfilmlarni sanaymiz? va h.k.	
3.	“Mobil telefon va mobil o‘yinlar ”	1.Tushuncha berish. 2. Sizlar telefondan kattalar kabi bemalol foydalana olasizlarmi? 3. Siz telefonda onlayn o‘yinlar o‘ynashni bilasizmi? 4. Siz qaysi o‘yinlarni sevib o‘ynaysiz sanab beraolasizmi?	
4.	“Kompyuter va internet ”	1.Tushuncha berish? 2.Kim kompyuterdan foydalanishni biladi? 3.Internet nima? 4.Internetda foydalanganda nimalar qiziqtiradi?	

2.2.5-jadval.

Rivojlanish soxalari bo‘yicha “Mediasavodxonlik” faoliyatni tashkil qilish.

Gurux	Katta gurux	
Mavzu	“Media va men”	
Markazlardagi mustaqil faoliyat		
Rivojlanish soxalari	Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmish tarzini shakllantirish	Bolalarga media vositalar (mediabolajon.uz elektron platforma asosida, tv, radio, mobil ilovalar ..) yordamida jismoniy mashqlar va turli harakatlarni bajarishni, o‘z harakatlarini hissyot va sezgi organlari yordamida boshqara olishni, shaxsiy gigiyena malakalarini

		qo‘llashni o‘rganishni o‘rganadi. Hayotdagi xavfsizlik qoidalariga rioya qilish bo’yicha ko’nikma va malakaga ega bo’ladi. Mustaqil ravishda tvda namoyish etilgan harakatlarga taqlid qila oladi.
	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Bolalar TVda namoyish etilgan ertak va multifilm orqali o‘zini o‘zi tahlil qiladi. Ularda reproduktiv va produktiv tafakkur rivojlanadi. O‘z hissiyotlarini boshqarib va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalay oladi. Qisqa metrajli hikoyani ko‘rib davom ettira oladi. Ertak qahramonlarini hissiyotlarini farqlaydi va o‘z munosabatini bildiradi.
	Nutq va o‘qish yozish malakalari	Bolalar audio she’r maqol va tez aytishlarni tinglab, qayta takrorlaydi didaktik o‘yinlar orqali intellektual qobiliyati rivojlanadi. Platformada joylangan video kontentlar harflarni to‘g‘ri talafuz qilish, yozish va esda saqlash imkoniyatini beradi. Multfilmlar orqali sodda va murakkab gaplardan foydalana oladi. Ikkinchi tilni o‘rganishga qiziqishi ortadi. o‘rgatish.
	Bilish jarayonining rivojlanish	Mediabolajon.uz elektron platformasi va mobil ilovalar orqali bolalarda intellektual anglash malakalari shakllanadi. Atrof olam va tabiatga oid taqdimotlar, multfilmlar orqali bilish olamiga faol qiziqadi. Intellektual o‘yinlar vositasida mushohada yuritadi hamda elementar matematik tasavvurlar shakllanadi. Oddiy sabab va oqibat aloqalarni tushunadi. Amaliy vazifalar yechimini topishga harakat qiladi. Atrof olam haqida mustaqil ma’lumot izlaydi, kuzatuvlar asosida xulosa qiladi va umumlashtiradi, bolalar ensiklopediyasidan foydalana oladi, kerakli ma’lumotni topa oladi. Shaxsiy taxminlari haqida gapiradi, avvalgi va hozirgi tajribasini umumlashtirib tushuntirib beradi.Tadqiqotda yechimini talab etayotgan muammoni belgilaydi, turli resurslarni qo‘llagan xolda shaxsiy kuzatuvlarni

		tasdiqlaydi va ta’riflaydi. Atrof muhitni yaxshilashda ishtirokning muhimligini tushunadi (daraxt va gullar ekish, suv, elektr energiyasi va qog‘ozni asrash).
	Ijodiy rivojlanish	Mediabolajon.uz elektron platforma, tv, radio, mobil ilovalar asosida berib borilayotgan ko‘rsatuvlar, multfilmlar orqali milliy an’analarni qadrlab va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi. Shaxsiy loyihalar yaratishda g‘oyalar bildiradi. Kichik ssenariylar tuzib, sahna ko‘rinishlari tashkil eta oladi. Tabiiy materiallardan qo‘l ishlari yasaydi va namoyish qiladi. Kiyimlarni bezash, guldastalar tuzish orqali dizaynerlik qobiliyati rivojlanadi. Ayrim san’at turlari va janrlarini farqlaydi (rasm, haykaltaroshlik). Arxitektura qurilmalari haqida elementar tushunchaga ega bo‘ladi. Uyali telefon va planshetlar orqali tasvirga olib ularga bezak bera oladi. Uyali telefon grafik dasturlari asosida syujet yarata oladi.

Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda va ularni media olamida savodxon, tarbiyali bo‘lishiga hizmat qiladigan “Mediasavodxonlik” ta’limiy faoliyatini tashkil etishda texnologik xaritaga ega bo‘lishi kerak. Bu o‘rinda shunday texnologik xaritani keltiramiz (2.2.6-jadval).

2.2.6-jadval.

“Mediasavodxonlik” ta’limiy faoliyatning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	Tarbiyachi	Tarbiyalanuvchilar
1-bosqich. Ta’lim tarbiya jarayoniga kirishish	1.Maqsadni belgilash. 2. Umumiy tushunchalar berish; 3.Bolalarning bilim ko‘nikmalarini aniqlash.	1. O‘rganadi. 2.Tushunchaga ega bo‘ladi.


2-bosqich. Rivojlanish sohalari bo‘yicha ta’lim va tarbiya jarayonini amalga oshirish	1. Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmish tarzini shakllantirish. 2.Ijtimoiy-hissiy rivojlanish 3.Nutq va o‘qish yozish malakalari 4.Bilish jarayonining rivojlanish 5. Ijodiy rivojlanish	1.O‘zlashtiradi. 2.Qabul qiladi. 3.Faollashadi.
3-bosqich. Mustaqil ishlarni tashkil etish	Audio, video, tarqatma materiallar asosida media o‘yin texnologiyasini tashkil qilish tashkil etish.	1.O‘zlashtiradi. 2.Qabul qiladi. 3.Faollashadi.
4-bosqich. Yakuniy	1.Natijalar tahlil qilinadi. 2.Yutuqlar belgilanadi. 3.Muammolar o‘rganiladi va navbatdagi tarbiya jarayoni rejalashtiriladi.	1.O‘zaro savol-javob o‘tkazadilar. 2. Topshiriqlarni bajaradi. 3.Muloqotda bo‘ladi.

Olib borilayotgan bu mashg‘ulotda mavzuga tegishli prezentatsiya, videorolik, og‘zaki savol-javoblar, topishmoqlar, she’rlar, turli mazmundagi amaliy tadbirlar o‘tkaziladi. Jumladan, bolalarning zerikib qolmasligi uchun jismoniy daqiqa, ko‘zning toliqib qolmasligi uchun ko‘zni ochib yumish mashqlari o‘tkaziladi. Buning uchun tarbiyachi mavzuning texnologik xaritasini tuzib olish kerak. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bolalarning mediata’lim texnologiyalarini bilishi media olamida savodxon bo‘lishi bu ularning qobiliyatlarini takomillashtirish bilan bog‘liq. Bola tomonidan mediata’lim texnologiyalarini qanchalik yuqori o‘zlashtirilsa uning natijasi bilim darajasini rivojlantirishda muhim hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tizimida mediata’lim texnologiyalariga shakllantirishda “mediasavodxonlik” faoliyati mustaqil ishlarni tashkil qilishda o‘yin texnologiyadan foydalanish muhim ahamiyatga ega. 5-6 yoshdagi tarbiyalanuvchilar o‘yinga qiziquvchan bo‘ladi. Ayniqsa kompyuter o‘yinlariga. Bola kompyuterda o‘yinlar bilan band bo‘lganida ekranga tikilaverib, kipriklari pirpiraydigan bo‘lib qolishi kabi salbiy holatlar vujudga kelishi mumkin. Bundan tashqari, ayrim tajovuzkor o‘yinlar bolalarning dunyo- qarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, jahldorlik kabi holatlar sodir bo‘ladi. Bolaning smartfon va planshet ekranlaridagi

obyektlarga tikilib o‘tirishlari ko‘rishdagi hamda bolaning bo‘yin qismida muammolarni yuzaga keltiradi. Mazkur vaziyatlarni yuzaga keltirmaslik uchun bolalarning mediasavodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotimiz jarayonida bolalar uchun muammo keltirib chiqaradigan, ammo bolalarimiz sevib o‘ynaydigan virtual o‘yinlar o‘rganilib chiqildi. Zo‘ravonlik, faxsh va shafqatsizlikka undovchi o‘yinlar: “Pubj”, “Minecraft”, “gta”, “counterstrike”, “EverQuest”, “Hang me” kabi.

Shuning sababdan, ta’limiy rivojlantiruvchi media o‘yin texnologiyalaridan foydalanish intellektual va ijodiy qobiliyatlari rivojlanishining samaradorligini ta’minlash, ularda muayyan faollikni yuzaga keltirish, shuningdek, bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni hosil qilishga xizmat qiluvchi vosita hisoblanadi. Buning uchun tarbiyachi o‘yinli texnologiyadan foydalanish orqali bolalarning ma’naviy va axloqiy kamolotida, ularning media tarbiyasini shakllantirishda katta tarbiyaviy ta’sir qudratiga ega ekanligini anglab etadi. Bolalarning turli kasblarga bo‘lgan qiziqishi ortadi, ma’naviy dunyosi shakllana boshlaydi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlanishida media o‘yinli texnologiya juda mos keladi. Buning uchun maktabgacha katta yoshdagi bolalar quyidagilarni bilishi va ularga rioya qilishi taqozo etiladi (2.2.1-rasm).



2.2.1.-rasm. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intelektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning media o‘yinli texnologiyasi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mediata’lim texnologiyalarini o‘zlashtirishi bu ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan axborotni o‘zlashtirish, egallash asosida shaxsning ichki dunyosini rivojlantirishdir. Tavsiya etilgan mediasavodxonlik faoliyatini keyingi faoliyat jarayonida quyidagi mavzular bilan shakllantirish maqsadga muvofiqdir:

- ✓ Media va axborot;
- ✓ Televizor ko‘rish qoidalari;
- ✓ Telefon xaqida tushuncha berish;
- ✓ Internet va insonlar;
- ✓ Media olamida axborotning xilma xilligi intellektual fikrlash;
- ✓ Axborotlarni saralash mantiqiy, ijodiy, tanqidiy fikrlash;
- ✓ Yolg‘onni rostdan ajratish; va h.z.

Tarbiyalanuvchiga atrofdan kelayotgan axborotlar, berilayotgan g‘oya va nuqtai nazarlarning qay biri unga to‘g‘ri, qay biri xavfli, qay biri tahdid solayotganligini aniqlash uchun o‘z g‘oyalari va nuqtai nazariga ega bo‘lishlik muhimligini anglashi hamda ularni o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib hayotiga tatbiq qilishini o‘rgatish uchun tarbiyachining o‘zi ham tanqidiy fikrlashni bilishi kerak. Tanqidiy fikrlash orqali o‘zini tahlil qila bilish – o‘zidagi ma’lum bilimlardan noma’lum bilimlarni aniqlab olish, chin va xato fikrlarni farqlash hamda ajratib olish muhim ekanligini uqdirib borishi lozim. Tarbiyachi ta’limiy vaziyatlarda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni bartaraf etishi juda muhim. Chunki hayot va faoliyatga tanqidiy yondashish, mavjud voqea hodisalar, narsa-buyumlarni bilishga intilganda bolaning ongida hosil bo‘lgan mantiqiy tushuncha, hukm, xulosalar uni turli xato va adashishlardan saqlaydi. Bolalar ta’lim-tarbiya jarayonida ma’lum tushunchaga ega bo‘lish, o‘sha tushuncha yuzasidan mulohaza (hukm chiqara olish) qilish va, albatta, bilganlari asosida zarur xulosani berish yoki chiqarishga yo‘naltirilishi shart.

Mutaxassislarning fikricha, tez rivojlanayotgan davrda xattoki, kattalar ham yolg‘on va rost axborotlarni ajratishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Maktabgacha yoshgacha bolalarda esa bu muammo undan ham murakkab tus kasb etayotir. Zero, axborot olamiga endi qadam qo‘ygan yosh avlod vakilida axboriy immunitet ham, yolg‘on va haqiqatni ajratish ko‘nikmasi ham bo‘lmaydi. Kichik bolani aldash, nimagadir ilxomlantirish juda oson. U dunyoni xarakatda idrok etadi, (masalan uning o‘yinchoqlari jonli qo‘g‘irchog‘ini uxlaydi, gaplashadi, ovqatlanadi...) jonsiz ekanligini u xali tushunmaydi. 3 yoshdan keyin bola solishtirishni o‘rganadi, u mushohada qiladi va farq belgilarini topadi. O‘ylab topilgan fantaziya davri boshlanadi, u har xil hikoyalarni o‘ylab topadi, ularning manbai atrofdagi hayot sahnalari, multfilmlar. Kattalar o‘z farzandi yolg‘on gapirayabdi, aldayabdi deb o‘ylab boshlaydi. Ammo bu davrda bola hali yolg‘on nima ekanligini va uning aytgan, eshitgan, ko‘rgan hamma voqea-hodisalar o‘zi uchun rost bo‘ladigan davr hisoblanadi. Shu sababli, mavzuga doir adabiyotlar tahlilidan kelib chiqqan holda, bolalarda bu yo‘nalishdagi zarur “himoya qatlami”ni shakllantirish uchun quyidagi tavsiyalar shakllantirildi:

- boladan axborot vositalari orqali aynan nima ko‘rgani, eshitgani, tushunganini so‘rash;

- bolaga axborot olishning turli (muqobil) manbalari haqida ma’lumot berish;


- bolani internet tarmog‘ida qidiruv tizimlari bilan ishlashni o‘rgatish;

- “Ertaklar yaxshilikkka etaklar” tamoyilidan kelib chiqqan holda, bolani ijobiy xislatlarni targ‘ib qiladigan ertaklarni namoyish qilish;

- bolaga eshitgan, ko‘rgan har qanday ma’lumotga ishonchsizlik bilan qarashni, axborotni qayta tekshirishni o‘rgatish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda mediata’lim texnologiyalari muhim hisoblanadi. U radio, televideniye, internet va boshqa axborot-kommunikatsion vositalari asosida o‘qitishga asoslanadi. Bunga ko‘rgazmalilik, tasviriylik, faktik yangilik, tezkorlik va uzluksiz aloqadorlik xosdir.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda mediata'lim texnologiyalarining imkoniyatlari turli axborotlar bilan tanishish, ulardan o'zlarining ijtimoiy (kundalik) faoliyatida foydalanish oddiy hodisa sanaladi. Quyidagi rasm mediata'lim texnologiyalarining maktabgacha yoshdagi bolalarning hayotidagi o'rni va rolini yoritishga xizmat qiladi (2.2.2-rasm).




2.2.2-rasm. Mediata'lim texnologiyalarining maktabgacha yoshdagi bolalarning hayotidagi o'rni va roli

Tadqiqot natijalari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini mediata'lim texnologiyalari asosida rivojlantirish modeli takomillashtirildi (2.2.3-rasm).

Maqsadli blok bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini mediata'lim texnologiyalari asosida rivojlantirishni ko'zda tutadi.

O'quv-tarbiyaviy faoliyat bloki bola kompetensiyalari jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ijtimoiy hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari, bilish jarayonlarining rivojlanishi, ijodiy rivojlanish sohalari bilan belgilanadi. Bolalarni kreativ- ijodkorlikka yo'naltirish, intellektual jihatdan tayyorlash atrofni o'rganish, qabul qilingan axborotlarni anglash, shaxsiy mushohada hamda kechinmalarni tahlil qilish, mulohaza yuritish faoliyatidan tarkib topgan.



2.2.3–rasm. Maktabgacha ta'lim tizimida mediata'lim texnologiyalari asosida bolalarni rivojlantirish modeli.

Informatsion jarayon blokida media vositalar orqali bolalarning bilimlarni o‘zlashtirishi sifatli kechashi asoslangan. Axborotga yondashuv xarakteri tavsiflangan. Pedagogik-psixologik mezonlar, amaliy topshiriq va ijodiy loyihalar bajariladi.

Intellektual va ijodiy rivojlanganlik darajasini aniqlash bloki o‘z ichiga metodlar, tayanch kompetensiya va baholash darajalarini qamrab olgan. Tayanch kompetensiyalar sirasiga kommunikativ, ijtimoiy, shaxsiy “Men” konsepsiyasi, bilish kabilar kiradi. [14]

Kommunikativ kompetensiyada bola atrofdagi odamlar bilan o‘zaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalariga ega bo‘lishni taqozo qiladi; muloqot qilish va yuzaga kelgan o‘yin, bilish, maishiy va ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, axborot olish uchun turli xil aloqa vositalari va kanallardan mustaqil foydalanish qobiliyatini o‘z ichiga oladi; ta’lim olishi va rivojlanishida foydalanish uchun kerakli ma’lumotlarni qidirish, tahlil qilish va tanlash, ularni tartibga solish, o‘zgartirish, saqlash qobiliyatini mustahkamlaydi.

Ijtimoiy kompetensiya - bu bolaning belgilangan tartib va odob-ahloq qoidalariga rioya qilgan holda tengdoshlari va kattalar bilan birgalikda ishlash qobiliyati.

Shaxsiy kompetensiya **“**Men” konsyepsiyasini yaratish**.** Bunda bola maktabgacha yoshda shakllanadigan va butun hayoti davomida takomillashib boradigan bir qator xususiyatlarni namoyish etadi.

Bilish kompetensiyasi bilim olish, o‘qish va o‘rganish; mustaqil ravishda izlanish, tahlil qilish va atrof-olamni tushunish uchun kerakli ma’lumotlarni tanlash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bolalar muammoni hal qilishga e’tibor qaratishlari, muammolarni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqishlari va atrofdagi dunyoni tushunish va tushuntirish uchun maqsadlar qo‘yishda kognitiv qobiliyatlarini ishga solishlari mumkin. Bolalar o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini davom ettirishlari, o‘rganishdan zavqlanishlari va o‘rganganlarini baham ko‘rishlari, kashfiyotlarini boshqalar bilan bo‘lishishlari mumkin.

Tadqiqot doirasida intellektual va ijodiy qobiliyatlarini mediata'lim texnologiyalari asosida rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari aniqlashtirildi. Bular:

- ijodiy tafakkurni rivojlantirish;
- bilish faoliyatini rivojlantirish;
- harakat va o‘zaro munosabatlarni shakllantirish ;
- turli yosh guruhlariga xos informatsion bilim va ko‘nikmalar;
- media materialni to‘g‘ri tanlanganligi;
- axborot maydonini yaratish va foydalanish;
- rivojlanish sohalarini integratsiyalash.

5–6 yoshli bolalar voqea-xodisalar bilan bevosita aloqada bo‘lishlari ularning kompleks rivojlanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu hol ularning aqliy qobiliyatlarini tarbiyalash hamda ijodkorlik sifatlarini tarbiyalashda zarur omil hisoblanadi. Bolalarning elementar matematik tasavvurlarini shakllantirish ularning sensor tarbiyasiga katta ta'sir ko‘rsatadi. Ushbu holatlar media vositalar va texnologiyalar yordamida namoyish etilsa bolalarning xotirasida uzoq muddat saqlanadi.

Pedagogning vazifasi mediatexnologiya asosida tabiat hodisalari va uning rang-barangligi, voqelikning sabab va oqibatlari, bola tasavvurini kengaytirishga yo‘naltirilgan videoroliklar ko‘rsatish intellektual-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi.

Tadqiqotimizda mediatexnologiyalar yordamida bolalarni nutqiy tafakkurini rivojlantirish, so‘z zaxirasini boyitish, mantiqiy tafakkuri hamda hisoblash malakasini o‘stirish jihatlariga e'tibor qaratildi.

Shunday qilib, umumdidaktik tamoyillar hamda belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, tashkil etilgan tajriba-sinov ishlarida mediatexnologiyalarni qo‘llash orqali bolalarda intellektual va ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga erishish mumkin degan xulosa asoslandi.

Mazkur model asosida ta'lim va tarbiya tarayonida maktabgacha yoshdagi

bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda mediata’lim vositalaridan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini, tafakkurini har tomonlama mukammal shakllantirish, tarbiyalash metodikasini takomillashtirish imkoniyati kengaytiriladi. Mediata’lim vositalaridan to‘g‘ri va unumli foydalanish, strategik maqsadning to‘g‘ri qo‘yilishi ish samaradorligining oshirilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda sun’iy va kengaytirilgan intellekt **(Virtual reality, Augmented reality)** texnologiyalarini mashg‘ulot mazmuniga singdirish media ta’limning eng zamonaviy texnologiyalaridan biridir.

Virtual haqiqat (VR, inglizcha virtual reallik, SR, sun’iy haqiqat) - bu texnik vositalar yordamida yaratilgan dunyo.

Virtual haqiqat insonga uning sezgi organlari orqali uzatiladi: ko‘rish, eshitish, teginish va boshqalar. Virtual haqiqat ham ta’sir qilishni, ham ta’sirga javoblarni simulyatsiya qiladi. Haqiqat tuyg‘ularining ishonchli kompleksini yaratish uchun real vaqt rejimida virtual haqiqat xususiyatlari va reaksiyalarining kompyuter sintezi amalga oshiriladi.

Virtual haqiqat obyektlari odatda o‘zlarini moddiy voqelikning o‘xshash obyektlarining xatti-harakatlariga yaqin tutadilar. Foydalanuvchi ushbu obyektlarga fizikaning haqiqiy qonunlariga (tortishish kuchi, suv xossalari, jismlar bilan to‘qnashuv, aks ettirish va boshqalar) muvofiq ta’sir qilishi mumkin. Biroq, ko‘pincha ko‘ngilochar maqsadlarda virtual olam foydalanuvchilariga real hayotda mumkin bo‘lganidan ko‘ra ko‘proq ruxsat beriladi (uchish, har qanday obyektlarni yaratish va his etish).

Virtual haqiqatni kengaytirilgan haqiqat bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Ularning asosiy farqi shundaki, virtual haqiqat yangi sun’iy dunyoni quradi, to‘ldirilgan reallik esa real dunyoni idrok etishda faqat individual sun’iy elementlarni kiritadi.

Kengaytirilgan reallik va virtual haqiqat - bu real hayot muhitini simulyatsiya qilingan muhit bilan yaxshilaydigan yoki almashtiradigan haqiqat texnologiyalaridir.

Kengaytirilgan reallik (AR) jonli ko‘rinishga raqamli elementlarni qo‘shish orqali, ko‘pincha smartfondagi kameradan foydalanib, atrofingizni kengaytiradi.

Virtual haqiqat (VR) - bu haqiqiy hayot muhitini simulyatsiya qilingan muhit bilan almashtiradigan butunlay immersiv tajriba.

AR-da virtual muhit haqiqiy muhit bilan birga yashash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, uning maqsadi ma’lumotli bo‘lish va real dunyo haqida qo‘shimcha ma’lumotlarni taqdim etish, foydalanuvchi qidiruvni amalga oshirmasdan kirishi mumkin. Misol uchun, sanoat AR ilovalari telefon ishlamay qolgan uskunaga qaratilgan bo‘lsa, darhol muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ma’lumotni taklif qilishi mumkin.

Bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda virtual haqiqat foydalanuvchi dunyosini butunlay virtual dunyo bilan almashtiradigan to‘liq ekologik simulyatsiyani o‘z ichiga oladi.

Virtual haqiqat ham, kengaytirilgan haqiqat ham foydalanuvchiga simulyatsiya qilingan muhitni keltirish uchun yaratilgan bo‘lsa-da, har bir konsepsiya noyobdir va turli xil foydalanish holatlarini o‘z ichiga oladi. Bolalarning ko‘ngilochar tsenariylarga qo‘shimcha ravishda, to‘ldirilgan reallik ham foydali, real dunyo tsenariylarini qo‘shadigan axborot qoplamalarini yaratish korxonalar tomonidan tobora ko‘proq foydalanilmoqda.

Dunyoda yangi texnologiyalarning rivojlanishi bilan bir qatorda ta’lim tizimida ham tez sur’atlar bilan yangi yo‘nalish va ixtisosliklar paydo bo‘lmoqda. Bu yo‘nalish va sohalar ko‘proq axborot texnologiyalari bilan bog‘liq bo‘lib ular bolalarning intellektual qobiliyatlari zamon va davrga qarab qanchalik rivojlanib borsa ularning bilim olish usullarini, balki tarbiyachi pedagoglarning mashg‘ulot olib borish usullarini ham tubdan o‘zgartirib yuboradi. Bu esa o‘z navbatida ushbu yo‘nalishda o‘ziga hoz ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni talab etmoqda. Bunda

asosiy e’tibor raqamli dunyoda yoshlarni har tomonlama bilim olishlari uchun yangi usul va metodlarni topish aynan dolzarb vazifadir.

Yuqori o‘rinlarda ta’kidlab o‘tganimizdek hozirgi kunda bolalarni ham aqlan ham jismonan band qiladigan asosiy vositalardan mobil telfonlar, planshetlar, smartfonlar va turli o‘yin pristavkalari kabi texnologiyalar juda ilg‘or rivojlanib bormoqda. Biz esa ushbu texnologiyalar orqali **bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini to‘g‘ri maqsad yo‘lida boshqara oladigan yangi metod, usul va vositalarni yaratishimiz kerak. Bu usul va vositalar virtual reallik ya’ni sun’iy intellekt orqali ular qiziqish va intilishlarini ro‘yobga chiqarish orqali haqiqiy xayotdan farqli jihatlarini ochib beradigan texnologiyalar bo‘lishi lozim.** Ushbu fan texnolgiyalarini hozirgi zamon o‘quv dasturiga integratsiya qilish ayniqsa maktabgacha ta’lim tizimida sezilarli innovatsiya hisoblanadi. Bundan so‘ng o‘sha fanlar bo‘yicha bolalarga etarlicha bilim, ko‘nikma va malaka bera oladigan axborot texnologiyalarini chuqur o‘zlashtira olgan pedagoglarni o‘qitish lozim bo‘ladi.

Pedagoglar, virtual ta’lim texnologiyalari bo‘yicha bolalar **intellektual va ijodiy qobiliyatlarini** o‘stiruvchi turli didaktik modellar yaratish orqali ushbu fanni chuqur o‘zlashtira oladigan yangi avlod kadrlarining axborot texnologiyalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bunda quyidagi vazifalar asosiy maqsad sifatida olinishi lozim:

- Tarbiyachi-pedagoglarning bolalar ta’lim va tarbiyasi bilan ishlash amaliyotini qayta ko‘rib chiqish;

- Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida virtual ta’lim texnologiyalarini o‘quv dasturiga integratsiya qilish mexanizmini ishlab chiqish;

- Virtual ta’lim texnolgiyalarining pedagogik afzalliklari yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqish;

- Bolalarning intellektual qobiliyatlarini oshiruvchi virtual ta’lim berish shakliga mos didaktik materiallar jamlanmasini yaratish;

- Bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini muntazam rivojlantirib borish maqsadida ularning mediasavodxonlik bo‘yicha bilimlarini boyitib borish;

Shunday qilib b**olalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini sun'iy intellekt (Virtual reality, Augmented reality) orqali rivojlantirish hozirgi kunda** eng samarali va natija beradigan usullardan biridir. Biz tajriba sinov jarayonida virtual 3D ko‘zoynaklar orqali ta'limga yo‘naltirilgan videoroliklarni namoyish etishda foydalandik. Bu jarayon bolalarda katta qiziqish qarshi olindi. Ammo ko‘zoynaklar soni kamligi sababli tajriba jarayonida qiyinchiliklarga duch keldik. Shunday qilib, bolalarga bilim berishda virtual ta'lim berishda foydalanishi mumkin bo‘lgan jihozlar hamda didaktik materiallarning o‘rni va ahamiyati har qachongidan ham muhimdir. Chunki bu usul bolalarga, bilim olishning yangi usullarini berish bilan qatorda turli media vositalar orqali atrofdagi dunyoni chuqurroq tushunish va tasavvur qilish yuzasidan ham katta bilim beradi. Ammo ularga bilim berishda tarbiyachi-pedagogning va virtual ta'lim berishda foydalanishi mumkin bo‘lgan jihozlar hamda didaktik materiallarning o‘rni va ahamiyati har qachongidan ham muhimdir.

§ 2.3.“MediaBolajon” nomli elektron platfomasini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish va uning samaradorlik darajasini aniqlash

Bugungi kunda mediavositalardan smartfonlar va planshetlar barcha avlod vakillari shu jumladan, ayniqsa bolalar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Insonlar hayotidan statsionar yirik kompyuterlar asta-sekin chiqib, ularning o‘rnini kichik mobil qurilmagan va kompyuterning yangi avlodlari egallamoqda. Ayniqsa bugungi saytlarda tarqaladigan ommaviy axborotdan ko‘ra “individual kontent” foydalanuvchilar uchun maqbul ko‘rinish kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanishi natijasida elektron resurslarva elektron platforma (web sayt)lardan foydalanish barcha sohalarda kengayib bormaqda. Jahon tajribalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, elektron resurslarning rivojlanish tendensiyasi ta'lim tizimini tubdan o‘zgartirishga ta'sir o‘tkazmoqda. Yaqin kelajakda elektron resurslar asosida ta'limni tashkil etishning dolzarbligi ortib, mobil vositalar sifatida telefon, smartfon, netbuk, planshet PDA (personal digital assistants) va boshqalardan ta'lim jarayonida foydalanish asosiy o‘ringa chiqishi mumkin. Shaxsiy kompyuterdan foydalanishga

ko‘ra mobil vositalardan foydalanishning afzalliklaridan biri – ulardan auditoriya va auditoriyadan tashqarida ulardan samarali foydalanish mumkinligidir.

Soha bo‘yicha mavjud adabiyotlarda “mediata’limda mobil vositalardan, elektron o‘quvplatformalardan foydalanib o‘qitishning afzalliklaridan biri har qanday va istalgan joyda noan’anaviy o‘qitish muhitini yaratish usuli hisoblanishi” (Education Technology Solutions)ta’kidlangan.

M.Xashemi, M.Azizinejad va boshqalarning fikrlariga ko‘ra, elektron ta’lim (ye-learning) va mobil qurilmalarning kundalik hayotdagi roli tobora ortib borayotgani “mobil ta’lim” deb nomlangan yangi o‘qitish uslubining paydo bo‘lishiga olib keldi. Shu bilan birga, ta’lim va o‘qitish sifatini oshirishda mobil o‘qitishning eng muhim komponenti bu elektron resurs yani elektron platformalar hisoblanmoqda.[76-40b]

Tadqiqotimizda “MediaBolajon” nomli elektron platfoma ishlab chiqildi. Uning tarkibiga bolalarning intellektual ,ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi hamda mediasavodxonligini oshiruvchi audio video maxsulotlar, didaktik topshiriqlar, slaydlar berilgan. Bundan tashqari platforma pedagog tarbiyachilar uchun ish xujjatlari, elektron adabiyotlar, faoliyat ishlanmalari, maktabgacha ta’lim tizimida yangiliklar kabi ma’lumotlar kiritilgan.

В.А.Куклев tomonidan mobil o‘qitish vositalari sifatida quyidagilar ko‘rsatilgan mobil kontentni o‘rganish uchun vositalar (darslik, elektron kitob, lug‘at, interaktiv tarjimon, televideniye, ekskursiya, yo‘l ko‘rsatuvchi, podkast, multimedia vositalarini saqlovchi);

ta’lim oluvchilar bilan aloqa vositalari (chat, elektron pochta, videokonferensiya, forum, blok);

o‘zlashtirilgan bilimlarni nazorat qilish vositalari (SMS-sinov, SMS-so‘rov va ovoz berish vositalari, forum, qurilmalar uchun bilimlarni tekshirish vositalari);

ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun vositalar (o‘yin va simulyatsiya, trening, guruh loyihasi, tadqiqot);

o‘qitishni qo‘llab-quvvatlash vositalari elektron axborot va ma’lumotlar tizimi, kompyuter tarmoqlaridagi ma’lumotlarga mobil vositalar orqali kirish);

O‘qitish vositalari o‘quv jarayonini individuallashtirish, faollashtirish, noformal va informal shakllarda ta’lim olish, bilimlarni chuqurlashtirish, mustahkamlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda ko‘plab elektron resurslar mavjud bo‘lib, “bularning barchasi o‘quv jarayonini faollashtirish, ta’lim oluvchilarni qo‘shimcha rag‘batlantirish va olingan bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan darsdan tashqari ishlar samaradorligini oshirishga yordam beradi” [162-69b]:

Biz taqdim etayotgan “Media bolajon” nomli elektron platformasi mavjud video, audio mahsulotlar, elektron adabiyotlar, bolalarning intellektual, ijodiy qobiliyatlarini va mediasavodxonligini rivojlantirish uchun , ularni tadqiqot predmetiga, maktabgacha yoshdagi bolalarning intelleketual va ijodiy qobiliyatini rivojlantiruvchi omillarga moslashtirgan holda quyidagicha ifodalash mumkin:

maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intelleketual va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari tomonidan bolalarga turli mavzulardagi media maxsulotlarni taqdim etish uchun albatta auditoriyada emas balki kichik guruxlarda o‘zining oddiy kompyuter, noutbuk va monobloklar orqali elektron resurslarni mobil vositalar orqali istalgan joyda olib yurish va foydalanish mumkinligi;

bolalarning intelleketual va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun Bluetooth, PDA kabi simsiz aloqa vositalari yordamida media xabarlarni yuborish, nusxalash, bola bilan o‘zaro interfaol muloqot o‘rnatish imkoniyati;

maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish va ularning qiziqishlarini oshirish maqsadida mobil telefonlar, gadjetlar, o‘yin qurilmalari va boshqalardan foydalanish mumkinligi;

maktabgacha katta yoshdagi bolalarning mobil qurilma orqali o‘ziga kerakli bilimlarni tanlash, istalgan vaqtda o‘zlashtirishlari mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni o‘zlashtirishning moslashuvchanligi.

Shu o‘rinda maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatini rivojlantiruvchi **“Media bolajon”** nomli elektron platformasi texnik va

funksional imkoniyatlaridan keng foydalanish bo‘yicha quyidagi ijobiy holatlarni keltirib o‘tish mumkin:

Tarbiyachi-pedagoglar uchun global tarmoq, saytlar va boshqa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda yangi mashg’luotlarni qabul qilish, yuborish, almashishda keng imkoniyatlar mavjudligi;

O‘rgatilgan mavzu, mavzu yuzasidan didaktik o‘yinlar, topshiriqlar, testlar mobil telefonlar orqali bajarish va bolalarga tegishli media bilimlarni tegishli modullar dasturlar orqali bilish darajasini mustaqil nazorat qilish imkonini berishi;

mobil telefonlar orqali tarbiyachilar va bolalarning vaqt va joydan qat’iy nazar, yangi ma’lumotlarni olish imkoniyati mavjudligi;

ovozli, grafik va videofayllardan foydalanish imkoniyatlari, bilim olishning turli manbalari va usullaridan foydalanish mumkinligi;

lug‘atlar va ma’lumotnomalarning mobil analoglari, har xil turdagi hisoblash vositalaridan foydalanish qulay va ular to‘liq va tezkor yangilangan ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Umuman olganda, **“Media bolajon”** nomli elektron platformasi o‘qitish dasturi o‘zini-o‘zi boshqarish va talablarga binoan kontentni zudlik bilan yetkazib berish, tinglovchilarga ish vaqtidan tashqarida ham malaka oshirish imkonini berish, birgalikda o‘qish va o‘zaro muloqot qilish uchun zamonaviy sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalari sohasidagi zamonaviy taraqqiyot va yangi raqamli media va o‘quv vositalarining keng tarqalishi, mediasavodxonlikning ahamiyati tobora ortib borishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda mediasavodxonlik deyarli butun dunyo ta’lim tizimida eng asosiy kompetensiyalardan biri deb tan olinmoqda.

“Media bolajon” nomli elektron platformadan foydalanish metodikasini yaratishdan maqsad raqamli va mediasavodxonlikni ta’lim kommunikatsiyalari va ommaviy texnologiyalarning shakllantiruvchi ta’siriga qarshi turishi lozim bo‘lgan yangi gumanizm kontekstida o‘rganishdan iborat. Tadqiqot media madaniyat va mediata’lim rivojlanishidagi eng yangi tendensiyalarni yanada chuqur tushunishga

ko‘maklashadi, media va axborot savodxonligining konseptual chegaralarini belgilab beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini mediata’lim texnologiyalari asosida rivojlantiruvchi **“Media bolajon”** nomli elektron platformasi aynan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan darslik sifatida xizmat qiladi. **“Media bolajon”** nomli elektron platforma – maktabgacha ta’lim tashkilotlarida media va axborot savodxonligini oshirish yo‘nalishi bo‘yicha berilayotgan ta’limiy dasturlarning muhim mavzulari bo‘yicha tizimlangan qo‘llanma bo‘lib, dasturning konseptual asoslarini ochib beradi. Mazkur elektron platforma orqali bolalarni media va axborot savodxonligi bo‘yicha qanday o‘qitish va o‘rgatish kerakligi borasida amaliy tavsiyalar beradi. Dasturda ta’lim oluvchilarga yo‘naltirilgan pedagogika, bolalarning ijodiy va intellektual bilimlarini mediata’lim orqali rivojlantiruvchi omillar batafsil ochib berilgan.

Ushbu platforma asosida bolalarni o‘qitishda ta’lim muassasida zamonaviy mashg‘ulot xonalar turli uskunalar bilan jihozlangan bo‘lishi va global internet tizimiga ulangan kompyuter, noutbuk va planshetlar bo‘lishi lozim. Bundan tashqari dasturda kuzatish, tadqiq qilish, tahlil qilish yo‘nalishlari orqali bolaning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini bosqichma bosqich ochib beradi.

Yaratilgan platformada axborot matnlari, tarbiyachi va bolalar uchun mashqlar keltirilgan. Guruh uchun yaratilgan mashqlardan alohida-alohida, turli kombinatsiyalarda va kontekstlarda foydalanish mumkin. Ular 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi tarbiyachi pedagoglar mazkur elektron platformadan yaxlitligicha foydalanish yoki o‘ziga to‘g‘ri keladigan yosh chegaralariga qarab tanlab olib bolalarga dars o‘tishlari mumkin.

Yosh chegaralari dasturdan keltirilganidan o‘zgacha tartibda o‘rganish ham mumkin, ammo shuni inobatga olish kerakki, matn va mashqlar yosh chegarasiga qarab murakkablashib boradi. Masalan, 6 yosh 3 yoshdan ko‘ra murakkabroq. Dasturda berilgan materiallardan, xususan, guruh ishi uchun mashqlardan ta’lim olib

boriladigan madaniy kontentning xususiyatlarini inobatga olgan holda foydalanish tavsiya etiladi.

“MediaBolajon” nomli elektron platformani amaliyotga joriy etish va uning samaradorlik darajasini aniqlash

Bizning asosiy maqsadimiz maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini mediata’lim texnologiyalaridan foydalanib rivojlantirish shu bilan birgalikda ularning mediasavodxonligini xam shakllantirish. Odatda, bolalarning mediasavodxonligi rasmiy ta’lim ishtirokisiz shakllanadi. Bu, maxsus o‘quv dasturisiz, amaliy, induktiv usul yordamida, o‘zgalarning yordamisiz, o‘z xatolaridan hulosa chiqargan holda, tengqurlarining maslaxatlari asosida ta’lim olishni bildiradi. Kamdan-kam hollarda mazkur ma’lumot darsliklar yoki qo‘llanmalardan olinadi. Ammo, shakllangan ijtimoiy kontekst, texnologik va media kontekstlar bilan bir katorda, aslida, yashirin, niqoblangan o‘quv dasturini shakllantirishini nazardan qochirmaslik kerak. Biz bolalarning mediasavodxonligini mashg‘ulot jarayonlaridan tashqari vaqtda o‘zlashtirish uchun hammada xam teng imkoniyatlar mavjud bo‘lishi mumkinligiga umid qila olmaymiz. Buning ustiga, mashg‘ulotdan tashqari vaqtda olingan ko‘nikmalar, ko‘pincha, yuzaki bo‘ladi va ba’zi jixatlarnigina qamrab oladi.

Mazkur muammoni hal qilish va uni amaliyotga joriy etishning bir nechta usullari mavjud. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagi tavsiyalar shakllantirildi:

1). Elektron resurslarga raqamli savodxonlik, media va axborot savodxonligi bilan bog‘liq bo‘lgan aniq mavzularni kiritish, bunga muvofiq tarzda maxsus dastur va ta’limiy faoliyatni shakllantirish.

2). AKT yordamida axborotni yaratish va almashinish ko‘nikmalarini shakllantirish, barcha mashg‘ulotlarda o‘qitishning bir qismi bo‘lishi lozim va bunga bolalar bilan bir qatorda tarbiyachilarni ham o‘qitish lozim.

3). Maktabgacha ta’lim tashkilotida “Mediasavodxonlik”ni ta’lim-tarbiyaviy faoliyatlarga joriy etish.

Uni yuqorida keltirilganlarning tizimli birlashishi sifatida qabul qilish va unga qadriyatlar tizimi, axborotni tanqidiy idrok etish va ijodiy yondashuvni qo‘llay olish qobiliyati sifatida kiritish maqsadga muvofiq.

Xar bir tarbiyachi-pedagoglar media ko‘nikmalarni egallagan bo‘lishi lozim. Tarbiyachilar bolalarni tanishtirayotgan media turlari qanchalik xilma-xil bo‘lsa, media ta’lim shunchalik sermazmun va chuqurroq bo‘lib boradi. Bugungi kunda tarbiyachi-pedagoglar duch kelayotgan eng katta vazifa - bu bolalarni axborot dengizida o‘z yo‘lini topishga o‘rgatishdir. Ammo, bolalar mediasavodxonligini shakllantirish boshqa har qanday ta’lim turidan farq qilmaydi. Turli media vositalardan foydalanilsa ham, asosiy komponentlar sifatida ta’lim maqsadi va usullari, tarbiyachi va bolalar orasidagi o‘zaro munosabatlar muhim sanaladi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki – bolalarning mediasavodxonligi ta’lim uchun muhim boshlang‘ich nuqtadir. Bolalar, media o‘yin ishtirokchilari sifatida o‘zlarini turli-hil rollarda sinab ko‘rish orqali yangi tajriba orttirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Mediasavodxonlikni rivojlantirishning eng yaxshi usuli-turli medialardan foydalanishdir, bunda ko‘nikmalarni orttirishda avtomatik tarzda ko‘p marotaba mediadan foydalanishning o‘zi etarli emas. Buning uchun qadriyatlar uchun kurashishga, ma’lum bir media resurs tanlash borasida o‘ylashga o‘rgata oladigan, bolalarni ishonchli ma’lumot tomon yo‘naltiradigan, medialarning ommabopligi bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha yordam bera oladigan tarbiyachi-pedagog zarur.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachi mediata’limni chuqur bilishi shart emas, uning texnikasi bo‘yicha daho bo‘lishi xam kerak emas, ammo u tarmoq odob-ahloqiga tegishli masalalar borasida o‘z xayotiy tajribasiga tayangan xolda, maslaxat berishga qodir bo‘lishi shart. Mediasavodxonlik bo‘yicha tarbiyachi-pedagogning malakasi shaxsiy media ko‘nikmalari, tajribasi va qiziqishiga, mediasavodxonlikning turli jihatlarini muhokama qilishga tayyorligi, tadbirlarida faol ishtirok etishi asosida quriladi.Tarbiyachi-pedagog bolalarning kichik bo‘lsada, tajribasini qadrlashi medianing zararli ta’siridan o‘zlarini himoya qilishni o‘rganishi uchun etarli hajmdagi axborot va ko‘nikmalarni taqdim qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglari biz tomonimizdan taklif etilgan **“Media bolajon”** nomli elektron platformadan foydalanishda quyidagi darajalar amalga oshiriladi:

1. Elementar daraja:

- Tarbiyachi mashg‘ulot jarayonida materialni bolalarga og‘zaki tushuntiradi va voqealar rivojini elektron tarzda namoyish qiladi;
- Ta’limiy maqsadlarga ko‘ra, media taqdimotlardan foydalanadi;
- Bolalarda media vositalar bilan ishlash malakasini shakllantirish;
- Bolalarga ta’lim berishda elektron media vositalarga qiziqtirishga emas balki mediadan xavfsiz foydalanishga ko‘proq urg‘u beriladi.

2. Tayanch daraja:

- Mashg‘ulot jarayonida guruhlardada elektron va bosma materiallardan foydalaniladi;
- Bolalarda elektron media vositalardan foydalanish ko‘nikmasi shakllangan bo’ladi;
- Tarbiyachi bolalarni meditexnologiyalardan faol foydalanishga rag‘batlantiradi: Masalan: media matnlarni yozish va eshitish, mobil qurilmalar, kompyuter, netbooklar, smart Tvlardan faol foydalana olish;
- Mediadan uzatilayotgan axborotlarni oddiy taxlil qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi, masalan, video; bolalar medialarni oddiy tahlil qilish usullari bilan tanishadi;
- Bolalar media ishlab chiqarishning oddiy ko‘nikmalariga ega bo‘ladi (ovoz yozish, fotosurat olish, videotasvirga olish);
- Media vositalar yordamida o‘quv materiali mazmuni muhokama qilinadi;
- Bolalar axborot texnologiyalari bo‘yicha ilk tajribaga ega bo‘ladi;
- Asosiy urg‘u medianing afzalliklari va samarali foydalanishga qaratiladi.

3. Yuqori daraja

- Guruhda turli media manbalar bo‘lib, ulardan to‘g‘ri foydalaniladi;

- Bolalarda har kuni media vositalardan foydalanish imkoniyati mavjud;
- Tarbiyachi muntazam ravishda turli mediatexnologiyalardan foydalanadi;
- Guruhda murakkab, boshqa madaniy kontekstlarda yaratilgan media taqdimotlardan foydalaniladi;
- Bolalar turli media mahsulotlar bilan ishlay oladi;
- Bahs-munozaralarda ishtirok etish, kichik guruhlarda mediani muhokama qilishga qodir;
- Elektron kitob, jurnallardan foydalana oladi.

“Media bolajon” nomli elektron platformasi orqali bolalarning intelektual va ijodiy qobiliyatini mediata’lim texnologiyalari orqali rivojlantirishda orttirilgan ko‘nikma va birlamchi darajalar o‘zaro taqqoslanib borilishi kerak. Bolalarning savodxonlik darajasi mediadan foydalanish imkoniyatining va kattalar ko‘magining mavjudligidan kelib chiqib, sezilarli darajada farqlanishi mumkin.

Elektron platformani boshlang‘ich darajasini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Elementar daraja

- bilish anglash ko‘nikmalari juda kam rivojlangan
- mediadan foydalanishda tayanch bilimlarning mavjudligi;
- elektron media vositalardan uyda foydalanish imkoniyatlari cheklangan yoki mavjud emas.

2. Tayanch daraja

- O‘rtamiyona rivojlangan bilish anglash ko‘nikmalari
- Media texnologiyalardan foydalanish tajribasining mavjudligi (televizor, mobil telefonlar, kompyuter, Internetdan foydalanish tushunchasi, onlayn muloqot)
- Turli elektron media vositalardan uyda foydalanish imkoniyatlari.

2. Yuqori daraja

- Bilish va anglash ko‘nikmasi, mediadan mustaqil foydalanish tajribasi (video,

televideniye, radio);

- Turli xil texnik uskunalardan keng ko‘lamda foydalanish malakasi;
- Turli medialardan uyda foydalanish imkoniyatlari;

Agar tarbiyachiga bolaning boshlang‘ich darajasi ma’lum bo‘lsa, uning kompetensiyasini quyida keltirilgan mediasavodxonligining umumiy darajasi bilan taqqoslashi mumkin.

- Media kontentlar orqali turli harakatchanlik faolligini uyg‘un ravishda va maqsadli bajaraoladi.
- Media kontentlar orqali shaxsiy gigiyena malakalarini qo‘llashni o‘rganadi, xavfsiz hayotiy faoliyat asoslari qoidalariga rioya qilishni o‘rganadi.
- Media kontentlar orqali o‘zi va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi.
- Media kontentlarni ko‘rish orqali o‘z hissiyotlarini boshqarib va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalay oladi, o‘zgalarning hissiyotlarini farqlab va ularga mos ravishda javob beradi.
- Media kontentlarni ko‘rish orqali kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qila oladi.
- Media kontentlarni ko‘rish orqali o‘z nutqida to‘g‘ri talaffuz, qulay grammatik shakllari va xilma-xil gap konstruksiyalardan foydalana oladi.
- Media kontentlar orqali ikkinchi tilni o‘rganishga qiziqishini namoyon qiladi, so‘zning lug‘aviy, bo‘g‘inli va fonetik tuzilish to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘la oladi.
- Bolalarning media kontentda ko‘rganlarini eslab qoladi va uni gapirib bera oladi.
- Media kontentlar orqali o‘quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil topib va ulardan foydalana oladi media kontentni kuzatish orqali tegishli xulosa chiqara oladi.
- Bolalar media kontentlarni ko‘rish orqali geometrik shakllarni biladi ularni taqqoslay oladi, oddiy matematik terminologiyani qo‘llashni biladi, raqamlar,

hisob-kitobni biladi va ularni hayotda qo‘llay oladi

- Bolalar media kontentlarni ko‘rish orqali tabiat hodisalarini turli omillarga bog‘liqligini tushuna oladi, qurilmalarni mustaqil o‘lchay oladi.
- Bolalar media kontentlarni ko‘rish orqali tabiatdagi o‘zgarishlar sababini tushuntirib bera oladi, insonlarning atrof olamiga ta’sirini tushuna oladimi? (masalan, ekin ekish, hosil yig‘ish)….
- Media kontentlarni ko‘rish orqali jonli va jonsiz tabiatni farqlay oladi, shaxsiy qiziqishlari va kuzatuvlariga bog‘liq savollar bera oladi.
- Media kontentlarni ko‘rish orqali shaxsiy taxminlari haqida gapirib, avvalgi va hozirgi tajribani umumlashtirish va tushuntirish kabi harakatlarni bajara oladi.
- Bolalar video kontentlarni ko‘rish orqali badiiy asarlar qahramonlari rolini o‘ynay oladi, voqealarni o‘ylab topib, ularni so‘zlab berishni biladi, syujet tuzish tug‘risida tushunchaga ega, qahramonning shaxsiy tajriba va hissiyotlarini o‘ziniki bilan taqqoslaydi.
- Bolalar video kontentlarni ko‘rish orqali shaxsiy loyihalar yaratishda g‘oyalar bildiraoladi, ko’rgan asarlarni mustaqil so‘zlab berib va ularni sahnalashtirishda faol ishtirok etoladi.
- Bolalar video kontentlarni ko‘rish orqali turli predmetlardan kompozitsiyalar yarata oladi, murakkab predmetlar chizib va ularni dekarotiv naqshlar bilan yasata oladi.
- video kontentlarni ko‘rish orqali xotira yoki tasavvuriga ko‘ra syujet yarata oladi, yangi g‘oyalar bera oladi, video kontentlar orqali olamni o‘zgartirishda insonning rolini anglay oladi.
- bola o‘z xis-tuyg‘ularini so‘zlar, timsollar va musiqa orqali ifodalaydi. Mediadan foydalanish rohat bag‘ishlaydi.
- Bola o‘z media ehtiyojlarini biladi va o‘z media tushunchalarini rivojlantiradi.
- Bola media xabarlar ma’nosini tahlil qilishni biladi. U o‘z qadriyat va ko‘rsatmalarini mediada taqdim etilganlari bilan taqqoslashni biladi.

- Bola o‘zligini va o‘ziga xos xususiyatlarni media kontent yaratish jarayonida namoyon qiladi.
- Bola turli rollarni farqlaydi va o‘zini shu rollarda tasavvur qilib ko‘radi. U boshqa insonlarga hamdardlik bildiradi.
- Bola mediada taqdim etilgan turli hil nuqtai nazarlarni qabul qiladi. U baxs-munozalarda ishtirok etishi, boshqalar fikrini tushunishi va unga quloq tutishi mumkin.
- Bola o‘rtoqlari bilan hamkorlik qiladi, ularga yordam beradi, boshqalar bilan birga ta’lim oladi.
- Bola turli rollarni sinab ko‘radi.
- Bola vaziyatga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini his qiladi. U aniq bir maqsadni ko‘zlagan holda, media yordamidam muloqot qiladi va ijtimoiy faoliyatda ishtirok etadi.
- Bola elektron dasturdan media kontentga yoshi bo‘yicha cheklovlar mavjudligini biladi, dasturdan foydalanish bo‘yicha muammolar yuzaga kelgan taqdirda, kattalarga qanday murojaat qilish kerakligini biladi.
- Bola internetdan xavfsiz foydalanishni biladi va virtual makonda axborot va maxfiylikni qanday himoya qilishni biladi.
- Bola internetda muloqot qilish me’yorlari, o‘zini tutish haqida
- tushunchaga ega va ularga amal qiladi.
- Bola elektron dastur orqali yuridik xuquq va majburiyatlarini biladi.
- Bola internetning qoida va qonunlariga amal qilgan holda mediadan turli usullar yordamida foydalanadi.
- Bola manbalarning maqsadini va maqsadli auditoriyasini aniqlashi mumkin, taqdim etilgan axborotning ishonchliligi, aniqligi, ahamiyati, xolisligi va ochiqlik darajasini baxolashi mumkin.

Hozirgi davrda tug‘ilgan avlod media olamidan oldingi avlodlarga qaraganda turli-tuman usullarda foydalanishga odatlangan. XX asrning 90-yillari boshlarida Neil Xou va Uilyam Shtraus avlodlar almashinuvi taxminan 25 yilda bir marotaba

sodir bo‘ladi, degan nazariyani ilgari surdilar. Har bir avlod vakillari bolalikda olingan tajriba tufayli shakllangan muayyan fazilatlarga ega bo‘ladilar. Avlodlararo yondashuv doirasida mualliflar to‘rt guruhni taklif qiladilar: bebi-bumerlar (1946 yilldan 1963 yilga qadar tug‘ilganlar); X avlodi (1964 yildan 1984 yilga qadar tug‘ilganlar); У avlodi (1985 yildan 2000 yilga qadar tug‘ilgan); Z avlodi (2001 yildan hozirgi kungacha tug‘ilganlar). Ushbu konsepsiya raqamlashtirishni va, xususan, masofaviy ta’limda tushunishda juda mashhur va samaralidir, chunki u axborot texnologiyalarining rivojlantirish jarayoni bilan bog‘liqdir.

Z avlod vakillari uchun Internet shunchaki texnologiya emas, balki rivojlanish manbai va ijtimoiylashuv omili sifatida xizmat qiladigan alohida bir olamdir. Rivojlanish jarayoniga nafaqat kattalar ta’sir o‘tkazadi, balki onlayn muhit ham muxim o‘rin tutadi. Ushbu avlod vakillarida ijtimoiylashuv an’anaviy shakllari bilan birgalikda raqamli ijtimoiylashuv orqali ham kechadiki, bu raqamli hayotning (idrok va axborot almashish, onlayn makon jonli va jonsiz elementlar bilan aloqa, onlayn iste’mol, elektron qurilmalardan foydalanish, shuningdek, madaniy, ijtimoiy, psixologik va texnik jihatlari) to‘plangan real obrazini hisobga olishga imkon beradi. Z avlod vakillari uchun media odatiy narsa va ularni innovatsiyalar bilan xayron qoldirish kiyin. Bu avlod vakillari global tarmoqdan dunyoning turli burchaklarida yashaydigan insonlar bilan munosabatlar uchun foydalanadilar va bu ish bilan shugullanishni ular oldingi avlod vakillaridan ko‘ra ertaroq boshlaydilar. Media olamida savodxon 7 yoshgacha bo‘lgan, mustaqil fikr-mulohazali bola “media” orqali ularga yetkazilayotgan axborotlarni farqlay oladi, barcha axborotlarni yaxshi va yomonga, kerak va keraksizga, foydali va zararliga ajratib,har birining salbiy va ijobiy jihatlari haqida tushuntirish bera oladilar, asosiy e’tiborni intellektual va ijodiy rivojlanishiga qaratadi.

MASHG‘ULOT ISHLANMALARI

5-6 yosh bolalar uchun **“Yer sayyorasi umumiy uyimiz”** mavzusida intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan “Tingla va farqla” texnologiyasi asosida olib borilgan mashg‘ulot ishlanmasidan namuna keltiramiz. Ushbu texnologiyani qo‘llash orqali bolalarning mantiqiy fikrlashi, so‘z boyligi oshadi, mustaqil fikrlash, atrof-muhitni asrab avaylash ko‘nikmalari shakllanadi.

Mashg‘ulotning borishi: Tarbiyachi bolalarga **“O‘z uyingni o‘zing asra”** mavzusida audio xikoya eshittiradi.

Tarbiyachi bolalarga savol bilan murojat qiladi: Xikoya nima haqida ekan? So‘ngra bolalar o‘z fikrlarini bildiradi.

Tarbiyachi uy ostonadan boshlanishi, uni ozoda saqlash, xona gullarini parvarishlash, uy xayvonlariga ozor bermaslik, narsa buyumlarni asrab avaylash haqida so‘zlab beradi. TVda Susambil ertagi multfilmi namoyish etiladi. Bolalar ertak qaxramonlari xolatini baholaydi va xar bir inson o‘z vatanini sevishi va asrab – avaylashi zarur ekanligini anglaydi.

Didaktik o‘yin “Yil fasllari”

O‘yin maqsadi: Yil fasllari va kuz fasli oylari haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

Kerakli jihozlar: yil fasllari elektron rasmi.

O‘yinning borishi: tarbiyachi bolalarga “Yil fasllari” elektron rasmlar va videotasvirlar namoyish etadi: Tarbiyachi qizil, yashil, ko‘k va sariq ranglarga bo‘yalgan hamda to‘rt qismga (yil fasllari) bo‘lingan kvadratlar tayyorlab oladi. Shuningdek, sariq rangdagi bo‘lim yana 3 qismga bo‘lingan, och sariq, sariq va sariq-jigarrang ranglarda kvadratlar. Tarbiyachi bolalarga quyidagicha savol beradi: «Yil fasllarining umumiy soni nechta? Ularni ketma-ketlikda aytib bering. (Rangni aniqlab, berilgan modelda yil fasllarini ko‘rsatadi.) Menga modelda kuz faslini

ko‘rsating. Ushbu 23 yil fasli nechta qismlarga bo‘lingan? Nima uchun bu yerda 3 qism bor deb o‘ylaysiz? Kuzning qaysi oylarini bilasiz? Kuzning so‘nggi oyi bu noyabr. Kuz oylarini tartib bilan aytib bering (sentabr, oktabr, noyabr). Tarbiyachi berilgan modelda ushbu oylarni ko‘rsatadi.

“Til va nutq markazi”da ta’limiy faoliyat olib borildi. Bolalar audio ertakni tinglab, uning nomi va mazmuni haqida so‘zlaydi. Mantiqiy fikrlash va sabab-oqibat munosabatlarini o‘zlashtiradi.

Maqsad: ertakni tinglash orqali ularning nomi va mazmunini so‘zlab berishga o‘rgatish. Obrazli xotirani rivojlantirish.

Jihozlar va materiallar: audio ertak, ertak qahramonlari rasmlari, kompyuter, ekran yoki televizor, ertak kitoblar.

1. “Uycha”ertagini audioda qisqacha eshittiriladi. Bolalar ularning nomini topadi.

2. Ertaklarni farqlaydi va ajratadi.

3. Ertak qahramonlari haqida so‘zlab beradi.

4. Ertakdagi xayrli va ezgu ishlar haqida suhbat o‘tkaziladi.

Amaliy topshiriqlar:

1. Ekranda namoyish etilgan qahramonlar nomini toping.

2. Stol ustidagi rasmlardan qahramonlarni yaxshi va yomonini ajrating.

3. Ertak qahramonlari harakatini ko‘rsating.

4. Hayvonlarning ovozini o‘xshating.

5. Ertak ishtirokchilarini rasmlarini ketma-ket stol ustiga terib chiqing.

6. Siz yoqtirgan qahramon rolini ijro eting.

Bolalar topshiriqlarni bajarib bo‘lgach, **“San’at markazi”**da ixtiyoriy ravishda rasm chizadi, loy va plastilindan, rangli qog‘ozlardan ertak syujetini yasaydi.

Texnologiyani qo‘llash natijasida bolalarda mayda va yirik motorika, ijodiy qobiliyat hamda intellekt rivojlanishiga erishildi.

Katta guruh tarbiyalanuvchilari **“Xatoni top”** texnologiyasida raqamlar ketma-ketligini topadi, juft sonlarni ajratadi. Ko‘rgazmali obrazli tafakkur

rivojlanadi, raqamlar shaklini biladi. Hisoblash va fikrlarni tizimlashtirishga o‘rgatadi.

Katta guruhda **“Son va belgilar”** bilan bolalar mazkur texnologiya asosida tanishtirildi.

Maqsad: bolalarga belgilar tizimini tushuntirish, son va belgilarni qo‘llashni o‘rgatish.

Jihozlar va materiallar: 1-10 gacha bo‘lgan katta o‘lchamdagi raqamlar, va arifmetik “+”, “ –“, “ =” belgilarning rasmlari, rangli qalam, ekran, kompyuter, qog‘oz, qaychi va magnit doska.

“Qurish, konstruksiyalash va matematika” markazida ta’limiy faoliyat olib borildi.

- Ekranda 1 dan 10 gacha raqamlar namoyish etildi.
- Bolalar sonlarni to‘g‘ri va teskari sanaydi.
- Juft sonlar tushirib qoldirilgan rasm ko‘rsatiladi, qoldirilgan sonlarni bolalar topadi.
- Ekranda tartibsiz ko‘rsatilgan sonlarni tartib bilan terib chiqadi.
- Eng kichik va katta sonni topadi.
- Amaliy mustaqil topshiriqlar:

1. Tarbiyachi 1 dan 10 gacha toq sonlarni aytmasdan sanaydi.
2. Qoldirilgan toq sonlarni topib, son miqdoricha sakraydi.
3. Tarbiyachi stol usida “5+2? 7” ko‘rinishdagi topshiriqni beradi. Bolalarga 2 sonidan keyin kerakli arifmetik belgini qo‘yishi so‘raladi.
4. Stol ustidagi rasmlardan qahramonlarni yaxshi va yomonini ajrating.
5. Ertak qahramonlari harakatini ko‘rsating.
6. Hayvonlarning ovozini o‘xshating.
7. Ertak ishtirokchilarini rasmlarini ketma-ket stol ustiga terib chiqing.
8. Siz yoqtirgan qahramon rolini ijro eting.

Didaktik o‘yin “Tushib qoldirilgan raqamni top”

O‘yin maqsadi: Raqamlar qatorida raqamning o‘rnini aniqlash, yetishmayotgan raqamni aytish.

Kerakli jihozlar: flanelegraf, 1 dan 10 gacha bo‘lgan buyumlarning tasvirlari mavjud bo‘lgan kartalar (har bir kartada turli buyumlar mavjud), bayroqchalar. O‘yin jarayoni: tarbiyachi flanelegrafda kartalarni tabiiy qator ketma-ketligida joylashtiradi. U bolalarga kartalarning joylashishi va qaysidir raqam tushib qoldirilmaganligini tekshirishni taklif qiladi. Keyin bolalar ko‘zlarini yumadilar, tarbiyachi bitta kartani olib tashlaydi. Bolalar qaysi raqam olib tashlanganligini topganlaridan so‘ng, yashirilgan karta ko‘rsatiladi va o‘rniga qo‘yiladi. Olib tashlangan raqamni birinchi bo‘lib nomlagan bola bayroqchani oladi.

Bolalar barcha topshiriqlarni bajarganlaridan so‘ng **“Til va nutq”** markazida son va raqamlar haqida she’rlar aytishadi.

“San’at” markazida bosma shaklda sonlarni chizadi, rangli qog‘ozda raqamlarni qirqib, elimlaydi.

“Birgalikda yasaymiz” texnologiyasi. Quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

1. Geometrik shakl va legolardan birgalikda uy, bino, minoralar quradi. Tarbiyachi bolalarga yo‘nalish va ko‘rsatma beradi. Qanday shakl va ranglardan foydalanishni bolalar mustaqil ravishda tanlaydi.

2. Bolalar yasagan uy va binolar haqida hikoya tuzadi. Bunda bolalar ijodiy fikrlashga yo‘naltiriladi. So‘z va iboralarni to‘g‘ri qo‘llashga o‘rgatiladi.

3. Tarbiyalanuvchilarni hamkorlikda samarali faoliyat ko‘rsatishga o‘rgatish. Bolalarni o‘z rejalarini muhokama qilish va muvofiqlashtirishga o‘rgatiladi, vazifalar taqsimlanadi. Birgalikdagi harakatlar natijasi tahlil qilinadi.

4. Refleksiya. O‘z kechinmalarini ifodalash. Bolalar o‘z hamkorlarining hissiy holatini anglashga yo‘naltiriladi. Xatti-harakatlari va his-tuyg‘ularini so‘zlashga imkon beriladi. Shaxsiy munosabat bildirishlari hamda yuz bergan vaziyatlarni muhokama qilish taklif qilinadi.

Mazkur texnologiya bolalarning jamoaviy faoliyatni tashkil etish, birgalikda faoliyat ko‘rsatish odobi va hamkorlikda ishlashga oid ko‘nikmalar o‘zlashtirilishiga imkon yaratadi.

O‘quv tarbiyaviy faoliyatda 5-6 yoshdagi bolalarga aqliy va ijodiy fikrlashni aniqlashga qaratilgan 5 ta turkum o‘quv topshiriqlari berildi.

1-turkum. Geometrik shakllarni farqlashga oid bilimlarni tekshirish.

1.Topshiriq. Shakllar ichidan o‘xshashini top.”Qurilish va konstruksiyalash” markazida bir xil geometrik shakllarni topib ko‘rsat.

2. Topshiriq. “San’at” markazida Archa va Uycha rasmini chiz.

3. Topshiriq. Turli xil shakllar rasmi ko‘rsatiladi. Shu rasmlardan Rombni ko‘rsat.

4.Topshiriq. Kvadrat ichida nechta uchburchak bor (kvadrat ichiga chizilgan karton ko‘rsatiladi)

5. Topshiriq. Rasmlar ichidan doira shakliga o‘xshaganini ko‘rsatib ber (stul, stol, muzlatgich, tarelka, piyola, kosa, qozon, non, quyosh,).

2-turkum. Mantiqiy fikrlash bo‘yicha ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni aniqlash.

1. Topshiriq. Rasmlarni tartib bilan joylashtir. Bolalarga seriyali syujetli rasmlar tarqatiladi. Hikoya va ertaklarning mazmuniga ko‘ra rasmlar ichidan topib, ketma-ketlikda joylab chiqadi.

2. Topshiriq. Turli xil kasb egalari va ularning ish qurollari tasvirlangan rasmlar (shifokor, o‘qituvchi, oshpaz, shofyor, o‘t uchiruvchi) ko‘rsatiladi. Qaysi ish quroli kimga tegishli, ko‘rsatib ber.

3. Topshiriq. Yovvoyi va uy hayvonlari rasmi ko‘rsatiladi. Ularni ajratib berish taklif qilinadi.

4. Topshiriq. O‘quvchi uchun kerakli o‘quv qurollarini topib ber. (kitob, daftar, ruchka, albom, sumka, rangli qalam, plastilin, o‘chirg‘ich, o‘yinchoq, doira, mashina rasmlari ko‘rsatiladi).

3. Turkum. “Mening jonajon O‘zbekistonim” mavzusiga oid bilim va malakalarni aniqlash.

